2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 241 (1030), 2023-yil 19-noyabr, yakshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

# HAR BIRIMIZ DUNYOQARASHIMIZNI O‘ZGARTIRIB, “BU MENING UYIM, MENING MAHALLAM, MENING TUMANIM, MENING VATANIM” DEB YASHASHIMIZ KERAK

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-noyabr kuni Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek va Yashnobod tumanlariga tashrif buyurib, sport va transport infratuzilmasi obyektlarining qurilishini ko‘zdan kechirdi, mahallalardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.**



Davlatimiz rahbari dastlab Olimpiya shaharchasidagi qurilish jarayonlarini ko‘zdan kechirdi.

Ma’lumki, 2025-yilda Yoshlar o‘rtasidagi Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari yurtimizda o‘tkaziladi. Shu bois, Olimpiya shaharchasida mazkur musobaqalar dasturiga kiritilgan barcha sport turlari uchun sharoit bo‘ladi. Uning maydoni 100 gektar. Asosiy inshootlar — 10 ming o‘rinli stadion va 2 ming tomoshabinga mo‘ljallangan velodrom, suv sporti saroyi, yakkakurashlar va jamoaviy o‘yinlar majmualaridir.

Shuningdek, 4 qavatli ma’muriy bino, 15 ta ochiq sport maydoni, yugurish yo‘laklari, bog‘lar barpo etiladi. Umuman, shaharchaning 54 foiz maydoni yashil hudud bo‘ladi. Buning uchun 37 gektarda sun’iy ko‘llar tashkil qilinadi.

Loyiha 70 ta mamlakatda sport inshootlari qurgan Xitoyning “CAMC Engineering” kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Bundan bir yil oldin, 9-noyabr kuni davlatimiz rahbari mazkur shaharcha qurilishiga tamal toshi qo‘ygan edi. Bugungi kunda asosiy binolarning poydevor ishlari to‘liq bajarilgan. 5 ta majmuaning konstruksiyalari tiklanib, qad ko‘tarib qolgan. Qurilishga mingga yaqin ishchi va muhandislar, maxsus texnikalar jalb qilingan.

Davlatimiz rahbari shaharchani ekspluatatsiya qilish bo‘yicha xorijiy tajribani joriy etish, xavfsizlik choralarini ko‘rish va qulayliklarni oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

— Osiyo o‘yinlari o‘tgandan keyin majmualar bo‘shab qolishi kerak emas, xalqimizga xizmat qilishi kerak. Bu yerda mashg‘ulotlar bilan birga sport ta’limi, ilmi, tibbiyoti mujassam bo‘lishi zarur. Ya’ni bu joy mamlakatimiz sportining ilmiy, amaliy, o‘quv-mashg‘ulot markazi bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Keyinchalik bu yerda Yoshlar siyosati va sport vazirligi, sport federatsiyalari, O‘zbekiston davlat sport akademiyasi va boshqalar faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Maydonchalarda yurtdoshlarimiz ham sport bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘ladi.

— Kelajakda bu shaharcha bilan bolalar sport maktablarini ham bog‘lash kerak. Ommaviy sportdan professional sportga o‘tish ko‘prigi bu, — dedi Prezident.

Shaharchada Paraosiyo o‘yinlari ham o‘tkazilgani bois, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun qulay yo‘llar va alohida sektorlar tashkil etiladi.

Prezidentimiz tavsiyasiga muvofiq, majmuada qayta tiklanuvchi energiyadan ham foydalaniladi. Yillik quvvati 10 megavatt 56 ming kvadrat metr quyosh panellari o‘rnatiladi.

Shu yerda Toshkent shahri bo‘yicha o‘tgan yili taqdimot qilingan investitsiya dasturiga muvofiq, bu yil ishga tushirilgan loyihalar haqida axborot berildi. Qayd etilganidek, joriy yilning o‘tgan davrida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida 360 ta loyiha bajarilib, jami 20 mingta ish o‘rni yaratilgan. Shuningdek, kelgusida Yangihayot tumanida 650 gektar maydonda yangi avlod sanoat zonasi tashkil etish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahrida “Yangi O‘zbekiston” ko‘chasi va 4R12 magistral yo‘li kesishuvida quriladigan yo‘l o‘tkazgich loyihasi bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda bu ikki yo‘lda qatnov ortdi. Bo‘stonliq va Parkent tumanlariga borayotgan sayyohlar soni ham avvalgi yillarga qaraganda bir necha barobar ko‘paydi, hali yana oshadi. Shuningdek, bu kesishma kelajakda Yangi Toshkent shahriga olib boradigan asosiy yo‘l bo‘ladi.

Shularni inobatga olib, bu kesishmada transport bog‘lamasi qurish mo‘ljallangan. Loyihaga ko‘ra, bu yerda 1 ta ko‘prik, 3 ta tunnel, 4 tadan aylanma va qo‘shimcha yo‘llar barpo etiladi. Bularning evaziga chorraha bironta ham svetoforsiz — “yashil chorraha” bo‘ladi. Bu qulaylik natijasida haydovchi va yo‘lovchilarning vaqti hozirgiga nisbatan 20-30 daqiqaga tejaladi, harakat xavfsizligi oshadi.

Prezidentimiz “Do‘stlik — Qo‘yliq” yerusti metrosi tagida qurilayotgan savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ham ko‘zdan kechirdi. Loyiha doirasida bu yerda 36 ta savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, sport va bolalar maydonchalari, avtoturargohlar barpo etiladi.

Mutasaddilarga bu yerda xavfsizlik choralari va nazoratini ta’minlash, Toshkent shahrida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Habib Abdullayev mahallasida ham bo‘ldi.

Bu mahallada 4 ming 400 nafardan ziyod aholi yashaydi. Hududda ellikka yaqin savdo do‘konlari va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, ta’lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. 38 ta ko‘p qavatli uy va to‘rtta ijtimoiy obyektga “Madaniyatli hudud” boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko‘rsatadi.

Aholining mazmunli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Joriy yilda otalar choyxonasi, amfiteatr, “Wi-Fi” hudud barpo etildi, ichki yo‘llar va bolalar maydonchalari ta’mirlandi.

Mas’ullarning e’tibori, aholining hamjihatligi sabab hududning manzarasi tubdan o‘zgardi. “Yashil makon” loyihasi doirasida shu kuzda 2 ming tupdan ortiq manzarali va mevali ko‘chatlar ekildi. Ikkita artezian quduq qazilib, yashil maydonlarni sug‘orish tizimi yaratildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda tuman faollari, nuroniylar bilan suhbatlashdi. Ular o‘z mahallalari obod bo‘lgani, energiya tarmoqlari ta’mirlanib, qishga puxta tayyorgarlik ko‘rilganini aytishdi.

Prezident energiyani tejash, xonadonlardagi issiqlikni asrash, har bir insonda bunga daxldorlikni shakllantirish zarurligini ta’kidladi.

— Dunyodagi iqlim o‘zgarishlari bizdan uzoqda, deb bo‘lmaydi. O‘tgan yilgi sovuq buni ko‘rsatdi. Endi iqlim o‘zgarishini inobatga olib, dunyoqarashimizni ham o‘zgartirishimiz kerak. Har bir fuqaro “bu mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim” deb yashasa, natija biz kutgandek bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu mahallada ham qish oldidan o‘nta transformator ta’mirlandi, elektr simlari almashtirildi. Ko‘p qavatli uylarning kirish yo‘laklari kapital ta’mirlandi, yangi eshiklar o‘rnatildi. Uylarning yerto‘lasidagi issiqlik quvurlari yangilandi.

Davlatimiz rahbariga Chilonzor tumaniga tashrif chog‘ida berilgan topshiriqlarga muvofiq qishga ko‘rilgan tayyorgarlik haqida axborot berildi.

**O‘zA**

ISLOHOTLAR — AMALDA



## “MAHALLA YETTILIGI”

## UNDA HOKIM YORDAMCHILARINING O‘RNI QANDAY?

**Prezidentimiz joriy yil 26-sentyabr kuni mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida “Mahallalar — davlatimizning eng katta zamini” ekaniga urg‘u berdi. Shuningdek, endilikda har bir mahallada “Mahalla yettiligi” tizimi ish boshlashi ma’lum qilindi.**

“Yettilik” tarkibidagi hokim yordamchilariga aholini tadbirkorlikka o‘rgatish, ishsizlarni ish bilan ta’minlash va shu orqali kambag‘allikni qisqartirish vazifasi yuklatilgan. Bu, albatta, hokim yordamchilarining odamlar hayotini yaxshilashdagi o‘rni qanchalik muhim va mas’uliyatli ekanini anglatadi.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy: “O‘tgan qisqa vaqtda hokim yordamchilarining mahalla aholisi turmushini yaxshilashdagi o‘rni qanday bo‘lmoqda?”.

Bugun shu savolga joriy yilning o‘tgan 9 oyida amalga oshirilgan ishlar tahlili atrofida, shuningdek, raqamli misollar yordamida javob berishga harakat qilamiz.

### Bandlikni ta’minlash

Xalqimiz azaldan tadbirkor, harakat qilsa, har ishning uddasidan chiqadigan iqtidorga ega. Tabiat o‘zgarishlariga tezkor yechim topish va qiyin vaziyatlardan maqbul yo‘l bilan chiqish hadisini olgan. Faqat ularga ozgina qo‘llab-quvvatlov va rag‘bat bo‘lsa bas, har ishni joy-joyiga qo‘yadi.

Bu borada esa mahallalarda ish boshlagan hokim yordamchilarining o‘rni alohida bo‘lmoqda. Boisi, ular har bir oilaga kirib, vaqtincha ishsiz bo‘lgan, lekin qo‘lidan ish keladigan, tadbirkorlikka qobiliyati va qiziqishi bor, biror hunar o‘rganishni istayotgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlar bilan suhbatlashib, ularning xohishiga qarab amaliy yordam ko‘rsatmoqda.

Davomi 3-betda

QARDOSHLIK RISHTASI

## TURKIY DAVR: UMUMIY TARAQQIYOT VA FAROVONLIK SARI YO‘L

**Bugungi tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonida qardosh Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlarning jahon siyosat maydonida nufuzi yuksalib, uning ovozi yanada kuchliroq yangray boshladi. Xalqaro miqyosdagi har bir masala, har bir muammo bo‘yicha tashkilotga a’zo davlatlarning yakdil pozitsiyaga egaligi Tashkilotning bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o‘ziga xos muhim o‘ringa ega bo‘lib borayotgani ifodasidir.**

Davomi 3-betda

TAHLIL VA TAQQOS

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

## milliy statistik ma’lumotlarni qanday qilib bir daqiqada yetkazib beryapti?

**Har qanday mamlakatga axborot texnologiyalarining kirib borishi nafaqat iqtisodiyot, balki boshqa sohalardagi munosabatlarga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarning deyarli yarmi XXI asr boshidan beri raqamli texnologiya bilan qamrab olindi va bu aholi hayot sharoitlarining sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keldi.**

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining qo‘llanilishi hisobiga moliyaviy, tijorat va davlat xizmatlaridan keng qamrovda hamda qulay tarzda foydalanish imkoniyati vujudga keldi. Shu o‘rinda aytish kerakki, “Synergy Research Group” kompaniyasi joriy yilda e’lon qilgan o‘rganishlariga ko‘ra, 2022-yilda dunyoda mazkur soha infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jami kapital xarajatlar 9 foiz ortgan.

Raqamli texnologiyalarning paydo bo‘lishi statistik xizmatlardan keng foydalanishning yangi istiqbollarini keltirib chiqardi. Ularning takomillashib borishi tufayli ma’lumotlar yig‘ishning an’anaviy vositalari eskirib borayotgani tobora ko‘rinib qolmoqda. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Davomi 4-betda

BUGUNNING GAPI

## OZIQ-OVQAT YETISHTIRISH

## ISHTIROKCHI HAM, ISTE’MOLCHI HAM MANFAATDOR BO‘LSIN



**Keyingi yillarda dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari narxi ko‘tarilmoqda. Bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi qiyinchiliklar va qator davlatlarda oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelgani bilan bog‘liq. Muammo dunyo bozoridagi umumiy holatga ham ta’sirini o‘tkazmoqda.**

Iqlim o‘zgarishlari, sahrolanishning kengayishi, suv tanqisligi kabi global masalalar buning asosiy sabablaridan. Bunday sharoitda davlatlar, avvalo, qishloq xo‘jaligini ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirib, aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga intilyapti.

Davomi 2-betda

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

TO‘QIMACHILIK SANOATI

# KLASTERLAR HUDUDLAR IQTISODIYOTINI YANGI POG‘ONAGA KO‘TARMOQDA

**Kasbi tumani paxta yetishtirishda Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. Har yili tuman fermer xo‘jaliklari 70 ming tonnadan ortiq hosil yig‘ib oladi. Ammo shu paytga qadar bu hududda tola qayta ishlanmagan. Bugun amaliyotga klaster tizimining kirib kelishi to‘qimachilik sanoatida ijobiy natija bera boshladi. Buni tumandagi amaliy ishlar misolida ham ko‘rish mumkin.**



Xususan, “Naxshab Tex Group” MCHJ klasteri tomonidan tumanda yirik loyiha amalga oshirildi. Qiymati 3 million dollar bo‘lgan mazkur loyiha asosida import o‘rnini bosadigan tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi.

— Hozir bu yerda 200 dan ortiq xotin-qiz ishlaydi, — deydi korxona ish yurituvchisi Shavkat Odilov. — Yil yakuniga qadar besh yuz nafar kishining bandligi ta’minlanadi.

Korxonada ayni paytda ishga qabul qilish jarayonlari davom etyapti. Asosan, mahallalarda ijtimoiy daftarlar ro‘yxatida turuvchi, ishsiz xotin-qizlar hokim yordamchilari tavsiyasi asosida bandligi ta’minlanmoqda. Umida Ahmedova ham shu paytgacha biror kasb bilan mashg‘ul emasdi. O‘zi istiqomat qilayotgan “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig‘ini hokim yordamchisi tomonidan “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga qo‘yilgandi. Yangi korxona ochilganidan so‘ng shu joyga ishga yuborildi.

— Ancha vaqtdan beri ishlab, oilamga daromad keltirishni orzu qilardim, — deydi Umida Ahmedova. — Avvallari uyda tikuv mashinasi olib, mustaqil shug‘ullanganim bu yerda qo‘l keldi. Tezda sinov muddatidan o‘tib, ilg‘orlar safidan joy oldim. Eng quvonarlisi, ro‘zg‘orimga nafim tegmoqda.

“Naxshab Tex Group” klasteri bugunga qadar 151 fermer xo‘jaligi bilan paxta yetkazib berish yuzasidan shartnoma tuzgan bo‘lsa-da, lekin shu yerning o‘zida qayta ishlashga imkoniyati yo‘q edi. Joriy yildan boshlab tumanning o‘zida toladan tayyor kiyimgacha tayyorlanib, xorij bozorlariga jo‘natilmoqda. Endilikda mazkur korxonada yiliga besh yarim million dona tayyor trikotaj mahsulotlari eksport qilinadi.

Kasbi tuman hokimi o‘rinbosari Javohir Jabborov bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda hududda paxtachilik yo‘nalishi bo‘yicha to‘rtta klaster faoliyat olib bormoqda. Jumladan, “Kitob ip yigiruv”, “Naxshab Tex Group” , “Cluster Khlal” va “Indorama Agro” klasterlari endilikda yangi bosqich sari dadil qadam tashladi.

— Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda klaster tizimi tashkil etilishi har bir sohada katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi bilan birga, yangi ish o‘rinlari ochilishiga ham erishilmoqda, — deydi J. Jabborov. — Birgina misol, buni tumanimiz misolida ko‘rish mumkin. Xususan, 2017-yilda Kasbi tumanida eksport hajmi “nol” qiymatda bo‘lgan. O‘tgan davrda amaliyotga yangi klaster yo‘nalishi kirib kelishi natijasida joriy yilning o‘tgan to‘qqiz oyida eksport ko‘rsatkichi 100 million dollardan oshdi. Yil yakuniga qadar bu yana ko‘payishi aniq. Shuningdek, 2017-yilda tumanimizda 83 ta kichik va katta sanoat korxonasi mavjud edi. Bugun ular soni 263 taga yetdi.

Ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shu yilning o‘tgan davrida “Indorama Agro” klasteri Singapur hamda MDH davlatlariga 89,5 million dollarlik mahsulot sotgan bo‘lsa, “Naxshab Tex Group” MCHJ tomonidan xorij bozoriga 5,94 million dollarlik tayyor kiyim-kechak yetkazib berilgan. Shu bilan birga, “Kasbi silk” MCHJ Indoneziya va Vyetnamga 1,7 million dollarlik xom ipak mahsulotlari eksportini amalga oshirdi.

Tumandagi to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish ishlari bu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Kelgusi yilda yanada katta loyihalarga qo‘l uriladi. Jumladan, “Kasbi yartex” MCHJ tomonidan 2024-yilda loyiha qiymati yigirma olti million dollardan ortiq bo‘lgan ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi bunyod etiladi. Ayni kunlarda Xitoy, Turkiya hamda Rossiyadan kerakli uskunalar olib kelish jarayonlari davom etmoqda. Ushbu korxona kelgusi yilning 3-choragida foydalanishga topshiriladi. Natijada 600 kishi ish bilan ta’minlanadi. Shuningdek, “Rimpex polimer” MCHJ tomonidan ham yigirma besh million dollarlik loyiha amalga oshiriladi. Yangi tashkil etilayotgan korxonada paxta va sun’iy toladan aralash ip ishlab chiqarish hamda tekstil chiqindilari qayta ishlanadi.

Tahlillarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Kasbi tumanida klaster tizimining kirib kelishi hudud iqtisodiyotini yuqori bosqichga olib chiqish bilan birga, odamlarni ish bilan ta’minlashda ham muhim o‘rin egallamoqda.

**Akbar G‘OZIYEV,**
**jurnalist**

INSON QADRI

# XALQ OVOZINI IFODA ETUVCHI TUZILMA

**Mohira Hayitbayeva Nukus shahridagi “Jana bazar” mahalla fuqarolar yig‘inida istiqomat qiladi. Kutilmaganda taqdir zarbasi uni esankiratib qo‘ydi – 2017-yili saraton xastaligiga chalindi. Ishidan bo‘shashga majbur bo‘ldi. Yaqinlari uzoqlashdi, uch farzandi bilan ko‘chada qoldi.**

U O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘istondagi Xalq qabulxonasiga murojaat qildi. Murojaati asosida dastlab vaqtincha yashab turishi uchun turar joy va oziq-ovqat bilan ta’minlandi. Bolalarining maktabi va kiyim-kechak masalasi ham Xalq qabulxonasi nazoratida bo‘ldi. Shu vaqt mobaynida davolanib, oyoqqa turdi. Ko‘p o‘tmay, barcha sharoitlarga ega uy-joy bilan ta’minlandi. Shu yilning o‘zida ishxonasiga ishga tiklandi.

“Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun” tamoyili asosida fuqarolarning ijtimoiy muammolari hal etilayotgani, huquqiy va qonuniy manfaatlari ta’minlanayotgani mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar samarasidir. Hududlarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar, yangilanishlar, avvalo, inson manfaati, xalq roziligi va odamlarning farovon hayotini ta’minlashga qaratilgan. Ayni jarayon xalq bilan muloqotning yangicha tizimi va shakli bo‘lgan Xalq qabulxonasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qabulxona xalq va davlat idoralari o‘rtasidagi muloqotni ta’minlashda mustahkam ko‘prik vazifasini o‘tayapti.

Keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonda aholini, ayniqsa, ayollar va yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida chekka hududlarda ham tikuv, to‘quv fabrikalari va sexlar ishga tushirildi. Subsidiyalar asosida issiqxonalar qurilib, ayrimlari uy-joy bilan ta’minlanmoqda. Shuningdek, hududlarda o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida ehtiyojmand oilalar aniqlanib, a’zolari “Temir daftar”ga kiritildi.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istondagi Xalq qabulxonasiga eng ko‘p murojaatlar ijtimoiy ta’minot, bandlik, uy-joy, gaz, ichimlik suv ta’minoti, ichki yo‘llar ta’miri bo‘yicha kelib tushgan. Asosiysi, tashkil etilgan sayyor qabullar jarayonida fuqarolarning bu boradagi muammolari ijobiy hal etilib, odamlarning og‘iri yengil, mushkuli oson bo‘lmoqda.

— Ellikqal’a tumanining 1-sektor hududidagi Qirqqizobod mahallasida 2023-yil ikkinchi choragida tadbirkorlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz aholiga jami 1 milliard 700 million so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratilib, bandligi ta’minlandi, — deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘istondagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi G‘ayrat Tileumuratov. — Yangidan 6 loyiha ishga tushib, 30 dan ortiq oila vakillari ishli bo‘ldi. Xususan, ko‘p yillar davomida mamlakatdan tashqarida tirikchilik o‘tkazib kelgan Umida Qurbonovaning oilasi bilan birga mamlakatimizga qaytishi ta’minlandi. Qizi “Yoshlar daftari”dagi ro‘yxatga kiritilib, subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berildi.

Navoiy mahallasida yashovchi Otabek Abdullayevga o‘z hovlisida intensiv usulda baliq yetishtirishi uchun 225 million so‘m miqdorida kredit olishda yordam berildi. Natijada “Javoxir gold fishes” oilaviy korxonasi tashkil qilinib, ayni paytda uch kishi doimiy ish bilan ta’minlandi.

Prezidentimizning Xo‘jayli tumanidagi Xalq qabulxonasi tomonidan fermerlar, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatida uchrayotgan muammolarga yechim topish maqsadida hududlarga biriktirilgan sektor vakillari bilan birgalikda samarali ishlar olib borilmoqda. Tadbirkor Timur Qurbaniyazov oilasi gulchilik bilan ro‘zg‘or tebratib keladi. Endi o‘z faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida Janqo‘ng‘irot mahallasida qarovsiz yotgan 2 gektardan ziyod yerdan foydalanish harakatida ekan. Tadbirkorning bu tashabbusi tegishli tartibda o‘rganib chiqilib, ushbu yer maydoni ijaraga olib beriladigan bo‘ldi. Endilikda u tashlandiq joyni tozalab, issiqxona qurish niyatida.

— Qorao‘zak tumanidagi 1-sektor hududiga qarashli Berdaq ovul fuqarolar yig‘inida joylashgan 7-umumta’lim maktabiga olib boruvchi yo‘l ham ta’mirtalab edi, — deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qorao‘zak tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Bahodir Mamutov. — Aholi tomonidan bildirilgan murojaatdan so‘ng ushbu yo‘l ta’mirlandi. Endi maktab o‘quvchilari tekis yo‘lda o‘qishga boradigan bo‘ldi.

Yana bir misol, tumandagi 2-sektor hududidagi Nurim tubak mahallasi tuman markazidan 30 kilometr uzoqda joylashgan. Qishloqda 50 ga yaqin bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga borish yoshida. Ularni tuman markaziga olib borishga aholi qiynalar edi. Ushbu mahallada istiqomat qiluvchi fuqaro Mirigul Bekxodjayeva qishloq markazidan uy-bog‘chasini ochish maqsadida Xalq qabulxonasi va sektor rahbariyatiga murojaat qildi. Holat o‘rganilib, murojaat ijobiy hal etildi. Hududdagi bo‘sh turgan yerga zamonaviy uy-bog‘chasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak. Ushbu tamoyilning amalda bajarilishi odamlarning davlat idoralariga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirmoqda. Turli vazirlik, idora va tashkilotlar mutasaddilarining joylarga chiqib, xalq dardini tinglashi, ularning holidan xabar olayotgani buguni, ertasi farovon bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Zero, Xalq qabulxonalari aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish orqali ularning huquqlari, manfaatlarini to‘laqonli himoya qilayotgan, murojaatlarni o‘rganish orqali mavjud muammolarni hal qilishning samarali tizimiga aylanib borayotir.

**Minajatdin QUTLIMURATOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

BUGUNNING GAPI



# OZIQ-OVQAT YETISHTIRISH

## ISHTIROKCHI HAM, ISTE’MOLCHI HAM MANFAATDOR BO‘LSIN

**2024-yilda yurtimizda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish 4 foiz o‘sishi kutilmoqda. Bu qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ham ishtirokchisi, ham iste’molchisi bo‘lgan yurtdoshlarimiz farovonligi oshishiga xizmat qiladi. Sohadagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad ham aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish, bozorlarda narx-navo barqarorligini saqlash, aholi bandligini ta’minlash va farovonligini oshirishdan iboratdir.**

**Zokir ALLAMURODOV,**
**O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bo‘lim boshlig‘i**

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda ham qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, yerdan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini yaxshilash orqali hosildorlikni oshirishga xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojini ta’minlashning muhim sharti sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda sohadagi yondashuvlar tubdan o‘zgarib, zamonaviy tizimga aylangani buning yaqqol misoli. Asosiysi, bu borada o‘zimizga xos usul va tajribalar qo‘llanilmoqda. Aholiga foydalanish uchun yer bo‘lib berish, paxta maydonlarini qisqartirib, bog‘dorchilikni rivojlantirish, klaster tizimi joriy etilib, “daladan eksportgacha” tamoyili yo‘lga qo‘yilishi shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 9-noyabrda paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham islohotlarning amaliy natijalariga e’tibor qaratildi. Dunyoda kechayotgan murakkab sharoit davrida harakatlarni yanada jadallashtirish, qishloq xo‘jaligining har bir yo‘nalishida yangicha yondashuvlarni faol davom ettirish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar belgilandi.

### Ko‘rsatkichlar nimaning hisobiga o‘sadi?

Yurtimizda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar umumiy maydoni 22 million gektardan ziyod. Qolaversa, o‘lkamizning quyoshli ekani qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatini yanada oshiradi.

Hamma gap ana shu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanishda. Bu borada 6-7 yil oldin boshlangan aniq va tizimli ishlar bugun natijasini bera boshladi. Jumladan, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining to‘rtdan bir qismi qishloq xo‘jaligi sohasiga to‘g‘ri keldi. Bu nafaqat mahsulot yetishtirish, balki ularni qayta ishlash, eksport qilishda ham ko‘rsatkichlarimiz oshib borayotgani dalili. Birgina meva-sabzavot eksporti joriy yilning 9 oyida 1 337,9 ming tonnaga yetib, o‘tgan yilning shu davridagidan 1,1 barobar oshdi.

Qishloq xo‘jaligi eng katta tarmoqlardan biri va uning yo‘nalishlari ko‘p. Xususan, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, issiqxona va hokazo. Ammo bularning barida aholi iste’moli uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladi. Bu mahsulotlar sifati, miqdori, talabgirligi esa bozordagi narx-navoni belgilaydi. Taklif qancha ko‘p bo‘lsa, narx shuncha barqarorlashadi.

Ammo qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish oson emas. Bu bir qancha omillarga bog‘liq. Ulardan biri yerga to‘g‘ri munosabatdir. Ya’ni oziq-ovqat xavfsizligi va mahsulotlar taqchilligi global masalaga aylangan hozirgi davrda yerni asrash, muhofaza qilish hamda to‘g‘ri va samarali foydalanish eng zarur talabga aylandi.



Shu bois, bu resursdan oqilona foydalanish va yer munosabatlari sohasida qonuniylikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yer hisobini olish, davlat yer kadastri ma’lumotlarini to‘g‘ri yuritish ishlari faollashib, raqamlashtirish jarayoniga o‘tkazildi. Yerlarni kengaytirish bo‘yicha katta ishlar qilinyapti. Xususan, yerni qayta foydalanishga kiritish, lalmi yerlar va yaylovlarni o‘zlashtirish uchun sug‘orish quduqlari qazish, nasos o‘rnatish hamda yangi mevali bog‘ va tokzorlar barpo etish tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Xo‘sh, bu qanday natija beryapti? Hozirgi kunda 67 milliondan ortiq aholiga ega Buyuk Britaniyada 17,5 million gektar maydondan 27,3 million tonna mahsulot olinayotgan bir vaqtda mamlakatimizda 4,3 million gektar yerda 120,6 million tonna qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilib, aholi jon boshiga 2,15 tonnani tashkil etmoqda. Shuning o‘zi yurtimizda yerdan foydalanish samaradorligi ortib borayotgani dalilidir. Joriy yilda natijalar yanada o‘sishi kutilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish 4 foiz, chorvachilik mahsulotlari esa 3,5 foiz o‘sishi kutilyapti. Jumladan, don ishlab chiqarish 4,2, meva 5,5, poliz va uzum 5, sut mahsulotlari 3,9, go‘sht 3,4 va tuxum 3 foiz o‘sishi hisob-kitob qilingan.

### Har qarich yerning hisobi bor

Qishloq xo‘jaligi sohasi rivoji orqali oziq-ovqat mahsulotlarini nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki qayta ishlovchi, eksport qiluvchi davlatga aylandik. Hozir yurtimizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsuloti jahonning 60 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinmoqda. Eksport ko‘rsatkichlarimiz oxirgi yetti yilda ikki barobar ortib, bir gektar ekin maydonidan olinadigan hosil bo‘yicha ham dunyoda yetakchi davlatlar qatorida turibmiz.

Band aholining 25 foizi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mehnat qilyapti. Nafaqat dehqon va fermer, balki oddiy aholining ko‘pchiligi xonadonida mahsulot yetishtirib, qo‘shimcha daromad topish barobarida o‘zini o‘zi band qilmoqda. “Bir hudud — bir mahsulot”, “Bir mahalla — bir mahsulot” singari yangicha tamoyil, samarali tizimlar asosida mehnat qilish ommalashib bormoqda. Maqsad esa sohada aholiga qulay shart-sharoit yaratish orqali bandlikni ta’minlash, qo‘shimcha daromad manbalari yaratishiga ko‘maklashishdan iborat.

Paxta va g‘alladan qisqartirilayotgan yerlarni ishsiz aholiga foydalanishga berish tizimi ham sohadagi eng katta islohotlardan biri bo‘ldi. 2021-yildan boshlangan tashabbus asosida 193 ming gektar yer dehqon xo‘jaligi tashkil etish orqali sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun aholiga 30 yilga ijaraga berildi. Ana shu yerlarda 2022-2023-yillar davomida qo‘shimcha 2,5-3 million tonna qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirildi. Fermer xo‘jaliklarining g‘alladan bo‘shagan yer maydoniga takroriy ekin ekib, qo‘shimcha mahsulot olish ham yaxshi samara bermoqda.

### Ilg‘or texnologiyalar tejamkorlikni oshiradi

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish ko‘p jihatdan investitsion loyihalar va zamonaviy texnologiyalarni faol jalb etishga bog‘liq. Bu boradagi aniq vazifalar Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida ham belgilab qo‘yilgan. Jumladan, hududlarda kamxarj, resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash, tomchilatib sug‘orish, gidroponika, aeroponika usullari joriy etilishi sarf-xarajatlarni bir necha barobar qisqartiryapti. Birgina joriy yilda qo‘shimcha 100 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar qo‘llanilishi natijasida hosildorlik 15 foiz oshgani kuzatildi.

2024-yilda ham tarmoqning iqtisodiy o‘sishini ta’minlash uchun tejamkor texnologiyalar joriy etish, biologik eskirgan navlar o‘rniga iqlim o‘zgarishiga mos, hosildorligi yuqori navlarni ko‘paytirish, suv hisob-kitob tizimini raqamlashtirish, irrigatsiya tizimida suv yo‘qotilishining oldini olish maqsadida kanallarni betonlashtirish belgilangan. Qabul qilingan dasturlar asosida kelasi yili paxtachilikda 8 ta, g‘allachilikda 12 ta tezpishar va serhosil nav ekilib, ekin maydonlarining 40-50 foizida resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hisobiga hosildorlikni 5-6 foiz oshirish ko‘zlangan. Qo‘shimcha 30 ming gektar yerda intensiv usulda sabzavot mahsulotlari yetishtirilib, g‘alladan bo‘shagan 780 ming gektarda takroriy ekin ekiladi. Hududlarimizda umumiy quvvati 2,5 million tonnaga teng 100 ta agrologistika markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha ham ishlar boshlangan.

Hozir suv tanqisligi eng global masalalardan biri. Bu esa yurtimizda ham yanada ko‘proq tejamkor texnologiyalarni qo‘llash zaruratini oshirmoqda. Shu bois, kelasi yil sug‘orish tizimini tiklash va suv hisobini yuritish tadbirlariga qo‘shimcha 3 trillion so‘m yo‘naltirilishi belgilangan. Bu mablag‘ hisobidan ming kilometrdan ziyod kanal ta’mirlanib, 815 kilometri betonlashtiriladi, 17 kilometr lotok yangilanadi. Natijada har yili 706 million metr kub suvni iqtisod qilish mumkin. Qo‘shimcha 411 ming gektar yerda sug‘orish tizimi yaxshilanishi hisobiga esa yillik ekspluatatsiya xarajatlari 196 milliard so‘m kamayadi. Yana 390 ta yirik suv o‘tkazish nuqtasi zamonaviy suv o‘lchagich bilan jihozlanishi rejalashtirilgan.

Umuman, 2024-yilda yurtimizda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish 4 foiz o‘sishi kutilmoqda. Bu qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ham ishtirokchisi, ham iste’molchisi bo‘lgan yurtdoshlarimiz farovonligi oshishiga xizmat qiladi. Sohadagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad ham aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish, bozorlarda narx-navo barqarorligini saqlash, aholi bandligini ta’minlash va farovonligini oshirishdan iboratdir.

ISLOHOTLAR — AMALDA

# “MAHALLA YETTILIGI”

## UNDA HOKIM YORDAMCHILARINING O‘RNI QANDAY?



**Mirzohid UBAYDULLAYEV,
Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi direktori**

Boshlanishi 1-betda

Mana shunday sa’y-harakatlar va o‘z vaqtida ko‘rilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida birgina joriy yilning o‘tgan 9 oyida 1,9 million ishsiz fuqaro doimiy va mavsumiy ish bilan ta’minlandi, 1,3 millioni o‘zini o‘zi band qilishiga ko‘maklashildi, 80 ming kishi yakka tartibdagi tadbirkor (yollanma ishchilar bilan birga) sifatida faoliyatini yo‘lga qo‘ydi, 95 ming fuqaro haq to‘lanadigan jamoat ishlariga va 48 ming nafari hunarmandchilikka (shogirdlar hisobiga) jalb etildi, 238 ming nafariga ijara asosida yer ajratildi.

Aslida, bir kishining og‘irini yengil qilish, hayotiga mazmun bag‘ishlash katta ish. Negaki, har bir fuqaro jamiyatimizning to‘laqonli a’zosi sanalib, ijtimoiy davlatda munosib yashashga haqlidir. Shu bois, hokim yordamchilarining mahalladagi ishsiz yurtdoshlarimiz bandligini ta’minlashdagi sa’y-harakatlari alohida e’tiborga molik.

Yana bir quvonarli jihat shundaki, bandligi ta’minlangan, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan fuqarolar faqat o‘zi uchun harakat qilmayapti, ular yaqinlari, mahalladoshlarini ham ish bilan ta’minlay boshladi.

Fikrimizga misollar ko‘p. Xorazm viloyati Hazorasp tumani Bo‘ston mahallasida hokim yordamchisi ko‘magida ish boshlagan “Ro‘za Komila” oilaviy korxonasi bugungi kunda tikuvchilik yo‘nalishida 20 nafar ishsiz fuqaroning kasanachilik asosida bandligini ta’minladi.

Korxona fuqarolarga bolalar kiyimlarini tayyorlash uchun gazlama va yarim tayyor kiyimlarni yetkazib berib, har bir tayyor mahsulot uchun 1500 so‘mdan to‘lab bermoqda. Natijada kasanachilar bir oyda o‘rtacha 4 million so‘mgacha qo‘shimcha daromad topyapti.

Yana bir misol, Farg‘ona shahar Surxtepa mahallasida tadbirkor Kamoliddin Zokirov tomonidan kosibchilik faoliyatini kengaytirish hisobiga mahalladagi “Temir daftar”, “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ishsizlardan 50 nafari doimiy ishga joylashtirilgan. Bugungi kunda ushbu oilaviy korxonada 70 nafar ishchi faoliyat olib bormoqda.

Aholi bandligini ta’minlashda hokim yordamchilari tavsiyasi bilan ajratilayotgan kredit mablag‘lari ham qo‘l kelyapti. Masalan, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 364 mingta loyihaga 7,6 trillion so‘mlik kreditlar ajratildi. Bunda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishiga 1838 milliard so‘m, shundan, 932 milliard so‘m issiqxona va bog‘dorchilik, 498 milliard so‘m chorvachilik, 131 milliard so‘m parrandachilik, 277 milliard so‘m baliqchilik, quyonchilik va asalarichilikni tashkil etish uchun yo‘naltirildi.

Shu bilan birga, 4907 milliard so‘m xizmatlar sohasiga, 500 milliard so‘m hunarmandchilikka hamda ishlab chiqarish uchun 77 milliard so‘m kredit ajratildi.

Ta’kidlash joizki, ajratilgan kreditlarning 60 foizdan ortiq qismi xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgani aholiga qisqa muddatda daromad topish imkonini berib, kreditlarni o‘z vaqtida qaytarishda qo‘l kelmoqda. Qolaversa, yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga zamin yaratyapti.

So‘z isboti bilan mazmunli. Sergeli tumani O‘zgarish mahallasidagi hokim yordamchisi tavsiyasiga ko‘ra, fuqaro N.O‘lmasovaga bolalarni maktabga tayyorlash o‘quv markazini jihozlash uchun 33 million so‘m miqdorida kredit ajratilgan va buning natijasida 8 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Bu esa tadbirkor o‘z ishini jadal yo‘lga qo‘yish va tezda foydaga kirib, kreditni vaqtida so‘ndirish uchun imkon berdi.





Yoki yana bir misol. Termiz tumani Amir Temur mahallasidagi fuqarolar ham ishning ko‘zini biladiganlardan. Lekin ularning ayrimlari o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish uchun qo‘li kaltalik qilib kelardi. Buni o‘rgangan hokim yordamchisi mahalladagi 14 nafar xotin-qizga tikuvchilik va 3 nafar yoshga qandolatchilik qilishi uchun zarur asbob-uskunalar olib berishda ko‘maklashdi. Ya’ni hokim yordamchisi tavsiyasi asosida ularga subsidiya ajratildi va vaqtincha ishsiz bo‘lib turgan bu fuqarolar o‘z kichik biznesini yo‘lga qo‘yib oldi.

Bu boradagi ishlarni raqamlar ko‘rinishiga keltirsak, quyidagicha bo‘ladi: aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularga mehnat qurollari va asbob-uskunalar olib berish bo‘yicha 45,6 ming fuqaroga 202,6 milliard so‘mlik subsidiya ajratildi. Jumladan, tomorqa yerlarida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun 26,6 milliard so‘m, kooperativlarga a’zo bo‘lish uchun 2,3 milliard so‘m, malaka oshirish uchun o‘qishga yo‘naltirishga 4,3 milliard so‘m, asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish xarajatlariga 153,8 milliard so‘m sarflandi.

### Hunar siri, yangi loyihalar va munosib turmush sharoiti

Xalqimizda “Hunarli kishi xor bo‘lmas”, degan purma’no maqol bor. Bu maqol bizning zamonda ham o‘z ta’sirini yo‘qotgani yo‘q. Yangilanib borayotgan dunyoda ba’zi kasblar ma’nan eskirib, ular o‘rnini zamonaviylari egallamoqda. Shu bois, bugungi davr shiddati ehtiyoj yuqori bo‘lgan kasb-hunar egallashni ham talab qilmoqda.

Bu jihatlar hokim yordamchilari nazaridan chetda qolmayapti, albatta. Joriy yilning 9 oylik hisobotiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 129 ming fuqaro zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qishga yo‘naltirilib, “Ishga marhamat” monomarkazlari va boshqa nodavlat ta’lim muassasalarida o‘qitilganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Xususan, Yangiyo‘l, Kogon shahar va To‘rtko‘l, Baliqchi, Bo‘ston, Qorako‘l, Zarbdor, O‘rta Chirchiq, Yozyovon, Rishton, Xonqa, Uchtepa, Shayxontohur tumanlarida kasb-hunar egallaganlar bandligini ta’minlash bo‘yicha yaxshi natijalarga erishilgan.

Birgina Sirdaryo tumani Hikmatli mahallasida hokim yordamchisi tomonidan 87 fuqaro kasb-hunarga yo‘naltirilib, o‘qishni tamomlaganlardan 8 nafari sartaroshlik, 4 nafari tikuvchilik, 7 nafari pazandachilik va 68 nafari boshqa yo‘nalishlarda ish boshladi.

Fuqarolar bandligini ta’minlashda yangi va istiqbolli loyihalarning amalga oshirilayotgani ham muhim o‘rin tutadi. Gap shu haqda ketganida aytish joizki, hokim yordamchilari tomonidan shakllantirilgan 39 mingta (ish o‘rni 171 ming) “mahallabay” mikroloyihalardan 20 mingtasi (52 foizi) ishga tushirilib, 78 mingta ish o‘rni yaratildi.

Misol uchun, Quyi Chirchiq tumani Beruniy mahallasidagi hokim yordamchisi ko‘magida “NEW MISS WISE” MCHJ tomonidan kiyim-kechak ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish orqali 17 ta yangi ish o‘rni paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz odamlar ertaga yoki olis kelajakda emas, bugun ham yaxshi yashashi uchun doim qayg‘urib keladi. Bu maqsad yo‘lida ko‘makchi sifatida hokim yordamchilarining ham hissasi borligini aytish adolatdan bo‘ladi, albatta.

Fikrimizni ayrim raqamlar bilan davom ettiramiz. Hokim yordamchilari, mahalla raislari va sektor rahbarlarining tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan joriy yilning 9 oyida mahallalarda 23,3 ming kilometr ta’mirtalab ichki yo‘llar shag‘allashtirildi, 21,7 ming kilometr yo‘llar asfalt qilindi, mahalla hududidan o‘tuvchi magistral yo‘l yoqasida ming kilometr piyodalar yo‘lakchalari barpo etildi.

Bundan tashqari, foydalanishga yaroqsiz holga kelgan 5,6 ming dona transformator, 123,1 ming dona simyog‘och va 90 ming dona tungi chiroq yangisiga almashtirildi. 32 ming kilometr ariqlarni tozalash va 6,8 mingta vertikal sug‘orish quduqlarini qurish orqali 302 mingdan ortiq xonadon tomorqasiga suv yetib bordi.

### Katta vazifalar hali oldinda

Bugun har bir tizim va soha rivojini zamonaviy texnologiyalar ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu mahallalar, jumladan, hokim yordamchilari faoliyatida ham o‘z aksini topmoqda. Shu maqsadda joriy yil boshidan aholi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish uchun mo‘ljallangan Online-bozor.uz platformasi ustida ish olib borilib, avgust oyida ishga tushirildi.

Mazkur platforma foydalanuvchilarga xilma-xil mahsulotlar va turli xizmatlarni sotish yoki sotib olish bo‘yicha bepul e’lonlar joylashtirish imkonini beradi.

Xo‘p, bu platformaning hokim yordamchilariga qanday daxli bor, dersiz. Gap shundaki, hokim yordamchilari ko‘magida mahallalarda tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar (ko‘rsatilayotgan xizmat)lar hamda aholi tomonidan tomorqa va ijara yerlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar mazkur platformaga joylashtirilmoqda. Bugungi kunda platformadan 1240 turdagi mahsulot va xizmatlar o‘rin olgan.

Kelgusida ushbu platformaning qamrovi va jozibadorligini yanada oshirish maqsadida Rossiyaning “Korporatsiya MSP” tashkiloti bilan agentligimiz o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Shunga o‘xshash yana bir yangilikni ham aytib o‘tmoqchimiz. Bugungi kunda hokim yordamchilari tomonidan “Onlayn mahalla” platformasining maxsus moduli orqali 1 milliondan ortiq kambag‘al oila uchun “Individual dastur”lar shakllantirildi.



Mazkur dastur doirasida kambag‘al oilalar daromadlarini oshirish maqsadida 9 turda, jami 1755 mingta amaliy chora-tadbir belgilandi. Shundan joriy yilning 1-oktabriga qadar bu toifadagi xonadon a’zolaridan 77,9 ming nafari doimiy va mavsumiy ish o‘rinlariga joylashtirildi, 34,4 ming nafariga imtiyozli kredit va 6,9 ming nafariga subsidiya ajratildi.

Ta’kidlash joizki, dasturga kiritilgan oilalarni kambag‘allikdan chiqarish va daromadlarini minimal iste’mol xarajatlari miqdoridan oshirishga erishish maqsadida aholi daromadini oshirish bo‘yicha ajratilayotgan moliyaviy resurslar birinchi navbatda ularga yo‘naltirib boriladi.

Darvoqe, aholi murojaatlarini tizimli hal etish, ularni nazoratga olish va doimiy monitoring qilish maqsadida “Onlayn mahalla” elektron platformasi Xalq qabulxonasi platformasiga integratsiya qilindi.

Tizim doirasida aholi murojaatlari hokim yordamchilarining plansheti orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli mas’ul tashkilotga yuborilib, ijrosi Xalq qabulxonasi tomonidan nazoratga olinmoqda. Natijada, joriy yil boshidan hokim yordamchilari tomonidan jami 5020 murojaat modul orqali tegishli mas’ul tashkilotga yuborilgan.

Shu o‘rinda yana bir ma’lumotni keltirmoqchimiz. Joriy yilning 9 oyida hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilgan ishlar hamda ko‘rsatilgan moliyaviy ko‘maklar hisobiga avval o‘zini o‘zi band qilgan 39 ming fuqaroning 17 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida va 22 ming nafari kichik biznes subyekti sifatida faoliyatini boshladi.

Kelgusida ushbu ishlarni davom ettirish maqsadida har chorakda kamida 3 ta o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni kichik biznes subyektiga aylantirish choralari ko‘rib boriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, hokim yordamchilarining mahallalardagi o‘rni va odamlar hayotini o‘zgartirishdagi ko‘magi e’tiborga molikdir. Negaki, har bir ezgu ishning boshida turish va insonlarga ko‘maklashish xayrli amaldir. Lekin bu yo‘lda hali qiladigan ishlarimiz juda ko‘p. Barchamizga ishonch beradigani esa mamlakatimizda boshlangan islohotlarning ortga qaytmas tus olgani va ijtimoiy davlat qurish yo‘lida mustahkam huquqiy asos yaratganimizdir.

QARDOSHLIK RISHTASI

# TURKIY DAVR:

## UMUMIY TARAQQIYOT VA FAROVONLIK SARI YO‘L

**Davlatimiz rahbari Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil qilish bo‘yicha boshlangan amaliy ishlarni to‘liq ma’qullagan holda, ishtirokchi davlatlarni birgalikda savdo to‘siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko‘paytirishda yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga chaqirdi. Zero, busiz yuksak va baland marralarga erishib bo‘lmaydi.**

Boshlanishi 1-betda

Tashkilot makonida esa savdo, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik kengayib borayotgani va O‘zbekiston uning barcha ishtirokchilari bilan strategik sheriklik aloqalarini o‘rnatgani, kengaytirayotgani e’tiborga molik. Birgina o‘tgan yili “Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari” shiori ostida o‘tkazilgan Samarqand sammitida imzolangan hujjatlar tashkilotga yangi quvvat bag‘ishladi.

Tashkilotga O‘zbekiston raisligi davrida yuzdan ortiq turli tadbir o‘tkazildi, muhim tashabbuslar ilgari surildi. “Turkiy nigoh — 2040” konseptual dasturi asosida amaliy hamkorlikning yangi va yanada samarali mexanizmlari yaratildi. Jumladan, Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkiloti, Fazo tadqiqotlari akademiyasi, Jo‘g‘rofiy kengash, Qurg‘oqchilikni bartaraf etish instituti, Notarial idoralar uyushmasi kabi yangi tuzilmalar ish boshladi. Qator nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar — BMT va uning turli ixtisoslashgan institutlari, Islom hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan yaqin sheriklik aloqalari o‘rnatildi.

Dunyoda o‘zaro ishonch susayib, qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan bir sharoitda qilinayotgan tizimli ishlar natijasida o‘zaro savdo hajmi ham o‘smoqda. Yaqinda Ostonada bo‘lib o‘tgan sammitda davlatimiz rahbarining “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan taqdirlanishi ham bejiz emas. Ma’lumki, bunday mukofot turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlash, turkiy mamlakatlarning manfaatlari va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga ulkan hissa qo‘shgan shaxslarga beriladi.

O‘zbekiston 2019-yilda TDTga a’zo bo‘lib kirganidan buyon davlatimiz rahbari tomonidan turkiy mamlakatlar o‘rtasida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Mamlakatimizning tashkilotga raisligi davrida amaliy hamkorlikning yangi samarali mexanizmlari yaratildi. Tashkilotga a’zo barcha davlatlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli aloqalar izchil kengaymoqda, strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatildi, savdo hajmi oshmoqda, kooperatsiya kuchaymoqda.

“Turkiy davr” shiori ostida o‘tgan Ostona sammitida ham davlatimiz rahbari tomonidan o‘ta dolzarb va ulkan ahamiyatga molik tashabbuslar ilgari surildi. Turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o‘tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan “Turkiy dunyo xartiyasi”ni ishlab chiqish, Turkiy investitsiya fondiga qo‘shimcha ravishda TDT doirasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish va ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish kabi tashabbus va takliflar shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil qilish bo‘yicha boshlangan amaliy ishlarni to‘liq ma’qullagan holda, ishtirokchi davlatlarni birgalikda savdo to‘siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko‘paytirishda yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga chaqirdi. Zero, busiz yuksak va baland marralarga erishib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda global logistika zanjirlari hamda transport yo‘laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog‘ini shakllantirish savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishning garovidir. O‘zbekiston yuk tashuvlariga o‘sib borayotgan talabni qondirish maqsadida O‘rta koridor salohiyatini kengaytirish taklifini ham doim ilgari surgan va qo‘llab-quvvatlagan. Shu ma’noda, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o‘tadigan koridorlarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish takliflari yangradi. Prezidentimiz TDT temir yo‘l idoralari kengashini ta’sis etish va bu tuzilmaning direksiyasini yurtimizda joylashtirishni taklif etdi.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda ekologiya muammosi butun dunyoning “bosh og‘rig‘i”ga aylangan. Iqlim o‘zgarishlari tufayli yuzaga kelayotgan turli muammolardan butun insoniyat qattiq aziyat chekmoqda. Bunday holat esa jahon hamjamiyatidan kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rishni talab qilmoqda. Shuning uchun davlatimiz rahbari vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko‘rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzishga chaqirdiki, bunday ta’sirchan mexanizm ekologiya sohasida bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, yurtimizda o‘tgan asrda yashagan jadid bobolarimizning ibratli faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish yuzasidan a’zo mamlakatlarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Prezidentimiz joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo‘lib o‘tadigan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro anjumanda TDTga a’zo davlatlar vakillarini faol ishtirok etishga chaqirdi. Shu bilan birga, yangilikka intilib yashaydigan, tashabbuskor o‘g‘il-qizlarni rag‘batlantirish uchun O‘zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochish tashabbusi ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari har bir oliy darajadagi ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlarda, xalqaro anjumanlarda dunyo hamjamiyati e’tiborini Afg‘onistonga qaratib keladi. BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi ham, MDH sammiti ham, TDT uchrashuvi ham bundan mustasno emas. Zero, tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Afg‘oniston zaminida tinchlik va osoyishtalik o‘rnatish mintaqamizda strategik barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashning asosiy shartidir. Biroq dunyoning boshqa nuqtalarida nizo va urushlar avj olayotgan hozirgi sharoitda ushbu muammo xalqaro hamjamiyat e’tiboridan tobora chetda qolmoqda.

Prezidentimiz afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami ko‘rsatishni susaytirmaslik, bu yurtdagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga da’vat etgani bejiz emas. O‘zbekistonga ham, mintaqa davlatlariga ham mintaqaviy sheriklik va barcha qo‘shnilari bilan iqtisodiy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etadigan, tinch va barqaror Afg‘oniston kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan transafg‘on temir yo‘lini barpo etish tashabbusi ham aynan mana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbari tomonidan Ostona sammitida ilgari surilgan tashabbuslar ro‘yobi, qabul qilingan muhim hujjatlar va qarorlar, jumladan, sammit deklaratsiyasi hamda Ostona akti mamlakatlarimizning yorqin turkiy kelajak sari navbatdagi dadil qadami bo‘lishiga shubha yo‘q.

**Abdumalik AKRAMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
pedagogika fanlari doktori, professor**



TAHLIL VA TAQQOS

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

## MILLIY STATISTIK MA’LUMOTLARNI QANDAY QILIB BIR DAQIQADA YETKAZIB BERYAPTI?



**Shohrux ODILOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi boshqarma boshlig‘i**

Boshlanishi 1-betda

Ma’lumotlarni yig‘ish va tarqatish jarayonini soddalashtirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanish butun dunyodagi barcha statistik xizmatlar uchun muhim vosita sanaladi. Foydalanuvchilarga to‘plangan ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilishda yordam beradigan batafsil metama’lumotlar uslubiyotini yaratishga asosiy e’tibor qaratilyapti. Bu ma’lumot yetkazib beruvchilarga nafaqat ortiqcha savollarni kamaytirish, balki axborot sifatini oshirishga ham imkoniyat bermoqda.

Milliy statistika tizimimizni takomillashtirishda ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, jumladan, axborot yig‘ish va qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish, statistik va tahliliy ma’lumotlarni interaktiv ko‘rinishda qisqa muddatda izlash hamda qulay shaklda olish, mazkur jarayonda statistika organlari o‘rtasida tezkor aloqani tashkil etish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi zimmasiga statistik ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va taqdim etish bo‘yicha axborot tizimlari, korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri platformasini takomillashtirish, aholini ro‘yxatga olish jarayonini avtomatlashtirish kabi vazifalar yuklatilgan. Ular ijrosi doirasida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganish hamda ularni statistika faoliyatiga joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

### Ma’lumotlar qanday to‘planadi?

Statistik ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni sohadagi ishlarni yuritishning eng muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Uning to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi tahliliy ma’lumotlarning haqqoniyligi va aniqligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Statistika agentligi tomonidan birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida quyidagi texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda:

— e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali olingan ma’lumotlar;

— planshet qurilmalari orqali o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalari;

— statistika integrallashgan axborot tizimida (SIAT) vazirlik va idoralarning ma’lumot bazalari bilan integratsiya orqali olingan axborotlar;

— telefon so‘rovlari, veb-sayt orqali o‘tkazilgan so‘rovnomalardan olingan ma’lumotlar.

2020-yildan boshlab statistika hisobotini qabul qilishning veb-texnologiyaga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi (“e-Stat 4.0”) agentlik mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilib, ishga tushirildi. U hisobotlarni shakllantirish va taqdim etishda alohida dasturiy ta’minot o‘rnatishni talab etmaydi, yuborilgan ma’lumotlar holati avtomatik tarzda tekshiriladi. Statistik kuzatuvlar bilan bog‘liq barcha jarayon haqida “shaxsiy kabinet” yordamida xabardor qilinadi va boshqa qulayliklar taqdim etib kelinyapti.

Axborot tizimini joriy etish orqali statistika hisobot blankalari uchun qog‘oz sarfi 2014-yilda 60 tonnani tashkil etgan bo‘lsa, hozirda barcha hisobot shakllari elektron shaklga o‘tkazildi hamda mazkur tizim orqali to‘plash joriy etildi. 2022-yil yakuni bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, foydalanuvchilarning 70 foizdan ortig‘i axborot tizimiga kirish qulayligi, 85 foizi uning interfeysi imkoniyatini, 82 foizi yaratilgan vositalar va 75 foizi ishlash tezligini ijobiy baholagan.

Ctatistika idoralari tomonidan xalqaro tavsiyalarga muvofiq hamda respondentlarga hisobot taqdim etish yuklamasini bosqichma-bosqich qisqartirib borish maqsadida doimiy ravishda statistika kuzatuvi shakllari takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, 2023-yil uchun statistika hisobotini shakllantirishda ularning 4 tasi o‘zaro birlashtirilib, ma’muriy ma’lumotlarga o‘tkazish va mavsumiyligini hisobga olgan holda bekor qilindi. 62 ta statistika hisoboti va ularning ilovalaridagi ko‘rsatkichlar sonini 2022-yilga nisbatan 3 ming 174 taga (17,7 foiz) qisqartirish orqali soddalashtirildi. 47 ta hisobot shaklining topshirish muddati respondentlarga qulay bo‘lishini inobatga olib maqbullashtirildi.



Natijada 2022-yilga nisbatan statistika hisobotlari soni 10,9 foizga, shu jumladan, oylik hisobotlar 14,3, mavsumiy hisobotlar 33,3 va yillik hisobotlar 12,2 foizga qisqartirildi. 2023-yil uchun 98 ta (2022-yilda 110 ta) hisobot shakli tasdiqlandi va Adliya vazirligidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Istiqbolda ham statistika kuzatuvi shakllari takomillashtirib boriladi.

Bundan to‘rt yil muqaddam tanlanma statistik kuzatuvlarni planshet qurilmalar yordamida o‘tkazish hamda ma’lumotlarni onlayn rejimda internet orqali Statistika agentligi markaziy apparati serverlariga yuborish imkoniga ega axborot tizimi va maxsus dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan edi. Ushbu dastur orqali narxlar va uy xo‘jaliklari tanlanma statistik kuzatuvlarini 2019-yildan boshlab respublika miqyosida test rejimida ishga tushirilgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib, barcha turdagi tanlanma statistik kuzatuvlarni o‘tkazish jarayonida to‘liq raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Tuman va shahar statistika bo‘limlari planshet qurilmalari bilan ta’minlandi va kuzatuvlar joriy etildi.

Ularning samarasi tufayli 2022-yilda 16 mingdan ortiq savdo nuqtalaridagi tovar va xizmatlar narxi, 14 mingta xonadonda uy xo‘jaliklari, 55 mingdan ortiq jismoniy shaxslar va 10,8 ming avtotransport egalari bilan xizmatlar sohasi bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Shu bilan birga, 5 mingdan ortiq qurilish, 30 mingga yaqin obyektlarda sanoat va savdo sohalari, 36 mingdan ziyod qishloq xo‘jaligiga doir tanlanma statistik kuzatuvlari planshetlar yordamida o‘rganildi.

Ushbu jarayonga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ularning samaradorligi va ishonchliligini oshirish imkoniyati yaratildi hamda kuzatuvlarni o‘tkazishga sarflanadigan qog‘oz sarfi 100 foiz, ma’lumotlarni to‘plash vaqti 2 barobar, ularni kiritish va qayta ishlash muddati 5-10 barobar, ma’lumotlarni yetkazib berish vaqti esa 10 kundan 1 daqiqaga qisqardi.

### Qayta ishlash va tahlil jarayoni

Hozirgi kunda statistik vazifalarni bajarishda dunyoda bu sohada ish olib boruvchi tashkilotlar bir qancha dasturiy mahsulotlardan foydalanadi. Statistika agentligida ham xorijiy tajribani o‘rgangan holda, STATA dasturiy paketini ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayoniga joriy etish bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan. Undan katta hajmdagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, regression va korellyatsion modellarga qo‘shimcha ravishda jadvalli, tahliliy hisobotlar, grafiklarni yaratishda foydalanilmoqda. Big Data va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish esa ularni yetkazib berish muddatini yanada qisqartiradi.

Binobarin, ma’lumotlar hajmining borgan sari ortib borishi ularni to‘plash, qayta ishlash, e’lon qilish va tezkor ravishda o‘zaro almashish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni talab etmoqda. Shuni inobatga olgan holda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarning sifati va ishonchliligini oshirish, foydalanuvchilarga qulay shaklda yetkazish hamda xalqaro tashkilotlarning maxsus nashrlari va ma’lumotlar bazalarida xolis aks ettirishni ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada veb-saytlar yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorlikning zarur hamda samarali vositasi hisoblanadi. Ularni yuritish, qo‘llab-quvvatlash va tegishli materiallar bilan ishonchli va uzluksiz to‘ldirib borish uchun mas’ul hisoblanadi. Ayni paytda agentligimizning stat.uz rasmiy veb-sayti, uslubiy materiallar uchun lib.stat.uz, gender statistikasi yuzasidan gender.stat.uz, Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha nsdg.stat.uz, hududiy boshqarmalar va kadrlar malakasini oshirish, statistik tadqiqotlar instituti veb-saytlari Internet global axborot tarmog‘iga ulangan holda faoliyat olib boryapti. Bu jarayonda alohida o‘rin tutgan rasmiy veb-sayt 2007-yildan buyon ishlamoqda va 2020-yilda Osiyo taraqqiyot banki mutaxassislari bilan birgalikda yangi formatda ishlab chiqildi va ishga tushirildi. Unda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy statistik ma’lumotlari, jumladan, YIM, qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmatlar, qurilish va investitsiya, tashqi va ichki savdo, korxona hamda tashkilotlar faoliyatiga doir ko‘rsatkichlar, aholi turmush darajasini yanada yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish jarayonini to‘liqroq tavsiflaydigan, tezkor va aniq ma’lumotlar 5 ta elektron formatda (csv, json, xml, xls va pdf) foydalanuvchilarga e’lon qilinmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq hamda davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar ijrosi doirasida “Statistika” integrallashgan axborot tizimi yaratilgan. Uning negizida siat.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi statistika portali ishga tushirilgan. Uni ishlab chiqishda Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya, Yaponiya, Hindiston, Belarus, Qozog‘iston va boshqa davlatlarning ushbu yo‘nalishdagi ilg‘or tajribasi o‘rganilgan.

Hozirgi kunda “Statistika” integrallashgan axborot tizimida 19 yo‘nalish bo‘yicha 2 mingdan ortiq rasmiy ko‘rsatkichlar 10 yillik dinamik qatorlarda, shuningdek, 30 yillik asosiy makro-ko‘rsatkichlar 5 yillik kesimda foydalanuvchilarga qulay va bepul shaklda yuklab olish uchun Excel, PDF va JPG formatlarda taqdim etilyapti. Mustaqil ravishda integratsiya qilish bo‘yicha CSV, JSON va XML shaklda joylashtirilishi va doimiy ravishda yangilanib borishi yo‘lga qo‘yilgan.

BMT Taraqqiyot dasturi ko‘magida Milliy Barqaror rivojlanish maqsadlari veb-sayti ishga tushirilgan. Ma’lumot o‘rnida aytish joiz, tasdiqlangan 190 ta milliy BRM indikatorining 152 tasi global BRM indikatorlariga to‘liq mos keladi, 28 tasi proksi va 10 tasi milliy yo‘nalish hisoblanadi. Statistika agentligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 128 ta Milliy BRM indikatori bo‘yicha ma’lumotlar shakllantirilib, mazkur veb-saytga joylashtirilgan.

Prezidentimizning 2019-yil 9-apreldagi “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Statistika agentligi davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma’lumotlar to‘plamlari ro‘yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalida joylashtirishni muvofiqlashtirishi belgilangan.

Dunyodagi 2 ming 600 dan ortiq ochiq ma’lumotlar portalining to‘liq ro‘yxatini qamrab olgan “Open data Inception”ning 2022-yilgi tahliliga ko‘ra, dunyoning 201 ta mamlakati orasida ochiq ma’lumotlar manbalari va ular soni bo‘yicha O‘zbekiston 4-o‘rinni egalladi. 2021-yilda esa 5-pog‘onadan joy olgan edi.

Statistika agentligi faoliyatining istiqbol rejalari keng qamrovli. Bunda yangi elektron xizmat ko‘rsatish turlari, biznes registr, statistik kuzatuvlarni tashkil etishda ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kosmik tasvirlar, kartografik chizmalar va dronlar kuzatuvidan keng foydalanishni joriy etish, hisobotlarni onlayn rejimda topshirish imkoniyatini beruvchi maxsus dasturiy ta’minotni muntazam takomillashtirib borish, Big Data va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalangan holda, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash kabi yo‘nalishlarga muhim ahamiyat qaratiladi. Ularning o‘z vaqtida tatbiq etilishi raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yangi bosqichga chiqarishga xizmat qiladi.

ORAMIZDAGI ODAMLAR

## TADBIRKOR BUVIJONLAR JAMOASI

**Tadbirkorlik faoliyatini boshlaganiga 25 yil bo‘layotgan Qunduz opa bugun nafaqada. Bir paytlar Qarshi tumanida non va non mahsulotlari korxonasini tashkil etganida hali bu yo‘nalishda faoliyat olib borish hech kimning xayoliga ham kelmagandi. “Gulshan” nomli xususiy korxona ochib, o‘zining mahsulotlari bilan xalq orasida tanildi. Shuning ortidan turmush o‘rtog‘i bilan birga farzandlarini oliygohlarda o‘qitdi, uyli-joyli qildi. Keyinchalik qizi Munisxon yoniga kirib, kasbini mukammal egallagach, korxonani unga topshirib, o‘zi pensiyaga chiqdi.**

Ammo doim el orasida bo‘lib, mehnat qilib yurgan kishi pensiyaga chiqib, bekor o‘tirolmadi. Yana bir korxona ochib, ish boshlamoqchi bo‘ldi-yu, bir paytlar “Gulshan” xususiy korxonasini ochish uchun otangga bor, onangga bor qabilida rosa sargardon bo‘lgan kunlari yodiga tushib, bu fikridan qaytdi. Onasining shashti so‘nganini eshitgan qizi uning gaplarini eshitib, hayratda qoldi. Go‘yoki, o‘sha damlardagi holat yosh qizga ertak kabi tuyulardi...

### Taqillatilmagan eshik qolmagandi

Qunduz Karomova Qarshi shahridagi 5-maktabda o‘qib yurgan kezlarida qandolatchilik kasbiga qiziqishi bor edi. Jurnallarda chop etilgan turli shirinliklarning tayyorlanish tartibini yon daftarchasiga qayd qilib borar, uyda o‘zicha ularni mustaqil pishirib ko‘rishga intilardi.

Maktabni faol o‘quvchilar qatorida oltin medal bilan yakunlab, Toshkent shahridagi xalq xo‘jaligi oliygohiga hujjat topshirganida o‘sha paytda uning iqtisodiyot fakultetiga o‘qishga kirishini ko‘pchilik kutmagandi. O‘qishni yakunlab, Qarshi tumaniga kelin bo‘lib tushganida, tayyorlagan shirinliklarini totib ko‘rgan oila a’zolari uning qo‘ligul ekanini e’tirof etgandi. Shundan so‘ng u o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘sha paytdagi Qarshi tuman “Matlubotsavdo” bo‘limiga iqtisodchi bo‘lib ishga kirdi. Lekin uyda bo‘sh vaqtida shirinliklar tayyorlashni kanda qilmadi. O‘z bilganicha turli mazali pishiriqlar tayyorlashga harakat qildi. 2000-yilga kelib, ishlab turgan tashkiloti tugatildi. Hunarli kishi xor bo‘lmas, deganlaridek, Qunduz opa hech ikkilanmasdan o‘zi sevgan hunari — shirinliklar pishirishga kirishdi. Dastlab qo‘shni ayolning tavallud kuniga tayyorlab chiqqan shirinligi bu ishning boshini tutishga turtki bo‘ldi. Ya’ni pishirilgan tort mazasini totib ko‘rganlar unga buyurtma berardi. Uy sharoitida asta-sekin shirinliklar tayyorlab, sota boshladi. To‘ylarga, turli tadbirlarga buyurtmalar tushib, qo‘li-qo‘liga tegmay qoldi.

Keyinchalik xaridorlar safi ortib bordi. Ularning talabini qondirish uchun yanada kengroq imkoniyat zarur bo‘ldi. Albatta, buning uchun korxona ochish kerak edi. Qo‘liga hujjatlarni olib, tezda xususiy korxona ochaman, degan opa istagi xomxayol ekanini keyin angladi. Har kuni qaysidir idora eshigini taqillatar, ularning turli vajlarini eshitib, ortiga qaytardi. Ertasi kuni shu ahvol yana takrorlanar, aytilgan ma’lumotnomani olib kelsa, yana qaysidir hujjatda kamchilik topilardi. Gohida: “ayol kishiga shu shartmikan”, degan dashnomlarni eshitsa-da, parvo qilmadi. Nihoyat oradan to‘qqiz oy o‘tib, turli ovoragarchiliklardan keyin “Gulshan” xususiy korxonasini ochishga erishdi. Endi barchasi oson kechadi, deb o‘ylagandi. Afsuski, hali muammolar oldinda edi. Ish yuritish uchun mablag‘ zarur. Buning uchun bankdan kredit olish u paytlarda oson emasdi.

Yana qo‘liga bir talay qog‘ozlarni ko‘targancha shahardagi banklar ostonasida kun o‘tkazdi. Qaysidiri ertaga keling, yana birovi kamchilik bor, yana birovi kafil kerak, deya turli bahonalar bilan qaytarib yuboraverdi. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni astoydil maqsad qilgan opa esa barcha to‘siqlarni yengib o‘tdi.

Asta-sekin ishlarini yo‘lga qo‘yib oldi. Keyinchalik tumandagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga non va non mahsulotlarini yetkazib bera boshladi.

Oradan ko‘p o‘tmay, eski va qarovsiz binoni sotib olib, qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasiga aylantirdi. Zamonaviy uskunalar keltirib, nafaqat Qarshi tumani, balki viloyat miqyosida ham mahsulotlarini sotishni yo‘lga qo‘ydi.

### Xorijiy tajriba ish berdi

Qunduz opa korxona ishlarini yuritish bilan birga o‘sha paytda Tadbirkor ayollar uyushmasining tuman bo‘limi rahbari bo‘lib ham ishladi. Shuningdek, yetakchi ishbilarmon xotin-qizlar qatoridan joy oldi.



2017-yilga kelib, tadbirkorlik yo‘nalishiga keng yo‘l ochila boshladi. Soha vakillari oldida uchrayotgan to‘siqlar birin-ketin bartaraf etilib, ularning malakasini oshirish borasida xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, o‘sha yilning bahorida yurtimizning bir qator ishbilarmon ayollari safida Qunduz Karomova ham Germaniyaga o‘quv seminariga yo‘l oldi. U yerda yirik korxonalar faoliyati bilan tanishib, tajribasini oshirdi. Hindiston, Malayziya va Yaponiyada bo‘lib, xalqaro tajribalarni o‘rgandi.

Xorij safarlaridan, doim bir olam tajriba bilan qaytardi. O‘rganganlarini korxonasida amalga oshirishga intildi.

— Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining sohaga bo‘lgan e’tibori natijasida katta yutuqlarga erishyapmiz, — deydi Qunduz opa. — O‘zimdan misol qiladigan bo‘lsam, kattagina natijalarni qo‘lga kiritdim. Shuning ortidan o‘ndan ortiq mamlakatda bo‘ldim, hamkorlar orttirdim, malakamni boyitdim. Xususan, Germaniyada bo‘lganimizda kattagina qandolatchilik korxonasida bo‘ldik. U yerdagi ishlar bilan yaqindan tanisharkanmiz, tashkilot rahbarining oddiy xodimlar bilan yelkama-yelka ishlayotgani bizni hayratda qoldirdi. Aslida, bu holat ishchilarning ruhiyatiga ta’sir qilib, o‘zgacha kuch bag‘ishlarkan.

### Mehnatda yoshlardan qolishmaydi

Tadbirkor ayol tashabbusi bilan 2020-yildan Qarshi shahridagi Batosh mahallasida “Buvijonim pishiriqlari” xususiy korxonasi o‘z faoliyatini boshladi. Unda Qunduz opa rejalashtirganidek, buvijonlar ishga qabul qilinib, malakali jamoa tuzildi. Hozirda ellik nafarga yaqin ishchi-xodim bandligi ta’minlanib, 50 turdan ortiq non va 40 dan ortiq turdagi shirinliklar xalq dasturxoniga tortiq qilinmoqda.

— Yoshim 64 da, — deydi sex ishchilaridan biri Xanifa aya Qilichova. — Yoshligimda novvoylik qilganman. Nafaqaga chiqqach, endi menga ish berishmasa kerak, deb o‘ylagandim. Bu yerdagi korxonani eshitib, xursand bo‘ldim. Boisi, deyarli ko‘pchiligi tengdoshlarim, ya’ni buvijonlardan iborat ekan. Meni ham o‘z saflariga qabul qilishdi. Bugun ahil jamoa bo‘lib, ish olib bormoqdamiz. Oylik maoshi ham yaxshi. Ishchilar uchun yaxshi sharoitlar qilingan. Qunduzxon ham rahbarman, deya bir chetda qarab turmaydi. Biz bilan birga doim harakatda. Buvijonlar jamoasi qanday ishlayapti, deya ko‘pchilik qiziqish bildiradi. Ammo yoshlardan qolishmaymiz.

Ayni paytda ushbu sexda bir oyda olti yuz million so‘mdan ortiq mahsulot tayyorlanib, xaridorlarga yetkazib berilmoqda.

Darvoqe, joriy yilning 18-avgust kuni Qunduz Karomova Prezidentimizning “Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga asosan “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. U kishi yuksak mukofotni davlatimiz rahbaridan qabul qilib olarkan, bu yurtda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shish uchun harakat qilgan kishi kam bo‘lmasligi, doim e’tiborda ekaniga amin bo‘ldi. Barcha bosib o‘tgan qiyinchiliklarni unutib, mehnati munosib taqdirlanganidan boshi ko‘kka yetdi.

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

TIL — MILLAT KO'ZGUSI

# Ulug'vor VAZIFALARGA MUNOSIB

## AMALIY TADQIQOTLAR ZARUR

**Baxtiyor MENGLIYEV,**
**Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi professori, filologiya fanlari doktori**

**Globallashuv xalqlar uchun ulkan sinovdir. Millat va xalq bu shafqatsiz sinovda g'olib ham, mag'lub ham bo'lishi mumkin. Bu uning ezgu maqsadlari va davlatning oqilona siyosati uyg'unligi bilan bog'liq. Xalq sabr bilan mashaqqatlarni bosib o'tsa, siyosat ularning orzu-intilishlarini ifoda etsa, fan muhtasham vazifalar uchun munosib yechim bera olsa, marra, albatta, zabt etiladi. Demak, xalq harakati, oqilona siyosat va samarali ilmiy yechimlar mushtarakligi muammolarning bartaraf etish kalitidir.**

Globallashuv iqtisodiyot kabi milliy madaniyatga ham katta imkoniyatlar eshigini ochish barobarida unga o'nglab bo'lmas zarbalar berishi ham mumkin. Bu esa har bir muammo yechimiga tizimli yondashuv, to'g'ri qarorlar qabul qilish va izchil, mohirona ijroni taqozo etadi.

Asrlar davomida o'tkir muammo bo'lib kelgan, globallashuv sharoitida yanada o'tkirlashgan, dunyo miqyosida keskin tus olgan milliy va etnik nizolar zamirida oshkora yoki pinhona dastak vazifasini o'taydigan til masalasi dolzarbligi ustuvorlashmoqda. Bundagi ehtiros va jazavalar fonida davlatning vazmin til siyosati va tilshunoslikning amaliy samaradorligi o'rtasidagi muvozanat katta, mubolag'asiz aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekistonda til siyosatida ham yangi davr boshlangan. "Ona tili" ifodasi tolerantlik o'z siyosatining ustuvor g'oyasi bo'lgan davlatimizda birgina o'zbek tili sohiblari uchun emas, balki barcha millat va elatlar uchun mushtarak tushunchaga aylandi. 2018-yildan buyon davlat tili barobarida barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirishning siyosiy va huquqiy asoslarini mustahkamlaydigan qator hujjatlar qabul qilingani bu boradagi ulkan qadamlar bo'ldi, deyish mumkin. Prezidentimizning qator farmon va qarorlari, hukumat hujjatlari, davlatimiz rahbarining BMT minbaridagi o'zbek tilidagi nutqi, mamlakatimiz miqyosida davlat tilida ish yuritish tantanasi amalda hech bir millat va elat tilini kamsitmasdan amalga oshirilayotgani mohirona siyosat va oqilona yondashuv mahsulidir. Buni xalqimizga juda zarur bo'lgan tinch va osuda hayotni ta'minlash uchun bemisl tuhfa va totli ne'mat desa bo'ladi.

O'zbekistonda til siyosatining amalga tatbiqi — serqirra jarayon. Uning siyosiy, huquqiy, tarixiy, falsafiy-ijtimoiy, madaniy, ilmiy yondashuvlar uyg'unligida amalga oshayotgani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Davlat tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, buning uchun ilmiy va amaliy bazani rivojlantirish, o'zbek tilining sun'iy intellekt tili bo'lishiga erishish yo'lida tashlanayotgan katta odimlar, til ta'limi metodikasini takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlar diqqatga sazovor.

Milliy grammatika qadimdan millat va xalqlar madaniyatining o'zak masalalaridan bo'lib kelgan. Yangi davrda uzoq yillar davomida munosib grammatik xususiyatlaridan muayyan darajada chetlashgan o'zbek tilining turkona qurilishi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar qilindi. Bugungi ta'limda o'zbek tili fonetikasi va grammatikasi bo'yicha ilmiy yechimdagi sof milliy talqinlar aksini topdi. So'z turkumlari va grammatik qo'shimchalar tasnifi, gap qurilishining o'zbekona tabiati bo'yicha bajarilgan muhtasham tadqiqotlar yangi dolzarb vazifa — milliy akademik grammatika yaratish darajasigacha yetib keldi. Yangi O'zbekiston mohiyatiga mos, milliy tilshunosligimizning so'nggi nazariy yutuqlari asosidagi bunday umumlashma ilmiy talqinlarni berishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj biz, mutaxassislar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklayotir.

Prezident farmonlarida O'zbek tilining milliy korpusini yaratish va uni muttasil takomillashtirib borish kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi. Bugun olimlarimiz tomonidan bu borada jiddiy ilmiy yechimlar ishlab chiqildi. Foydalanish uchun taqdim etilayotgan O'zbek tili milliy korpusida 7 milliondan ortiq gap, 15 milliondan ortiq so'z qo'llanishini qamrab olgan matnlar majmuasi ustida ko'p sonli lingvistik operatsiyalarni bajarish imkoni vujudga keldi. Bu yutuq o'zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy muammolari ustida olib borilgan chuqur ilmiy izlanishlar, o'zbek tilini sun'iy intellekt uchun qayta ishlaydigan morfologik, semantik, sintaktik analizatorlarni ishlab chiqish, so'zlarning 1 milliondan ortiq grammatik shaklini qamrab olgan 10 jildli "Grammatik shakllar lug'ati"ni yaratish asosida qo'lga kiritildi. Bu natijalar o'zbek tili bo'yicha turli, jumladan, tarjima dasturlarini yaratish uchun kuchli zamin hozirladi.



Til va undan amaliy foydalanish samaradorligi davlat va hukumat hujjatlarida alohida muammo va vazifa sifatida qo'yilgan. Bu vazifaning yechimi sifatida oliy ta'lim tizimida "Amaliy filologiya" bakalavr yo'nalishi tashkil etilishi qo'yilayotgan talablarga munosib javobdir va yo'nalishda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarning til korpusini tuzishdagi amaliy ko'maklari juda katta bo'ldi. Bu borada Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti bilan hamkorlikda katta ishlar qilinmoqda. Yo'nalish o'quv-moddiy bazasini rivojlantirish uchun mutlaqo yangi tipdagi 10 dan ortiq o'quv qo'llanma yaratildi. Amaliy tilshunoslik bo'yicha ilmiy darajali mutaxassislar tayyorlandi. Bu mutaxassislardan bir nechasi yurtimizda endigina shakllanayotgan "Milliy lingvistik ekspertologiya" ilmiy yo'nalishining ilk vakillari sifatida huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda jinoyatchilikni aniqlash va oldini olish amaliyotida munosib ishtirok etmoqda.




Kadrlar taraqqiyot garovidir. Lingvistik ekspertlar tomonidan Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda "O'zbek milliy talaffuzi manzarasi" muammosi doirasida rejalashtirayotgan istiqboldagi tadqiqotlar majmui jinoyatchilikni aniqlash va uning oldini olish amaliyoti uchun ulkan ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Til milliy madaniyatni, nutq esa shaxsiy ma'naviyatni ifodalaydi. Har bir til millati ma'naviy qiyofasini aks ettiradi. Bu davlatimiz rahbari nutqlari va uning dasturiy ko'rsatmalarida takror va takror uqtirib kelinmoqda. Bu holat o'zbek tilshunoslariga katta mas'uliyat yuklash bilan birga tadqiqotlar ufqini yanada kengaytirdi.

Til ma'naviyat ifodasi ekan, til va ma'naviyat mushtarakligi tadqiqi ham unga munosib ravishda rivojlanmog'i lozim. O'zbek zaminida endigina shakllanib, jahonga yuz tutayotgan, hatto nufuzli xorijiy nashrda ham o'zbekcha "Lingvoma'naviyatshunoslik" atamasi ilk bor "Linguomanaviatology" shaklida berilishi bu milliy ilmiy yo'nalishning porloq istiqbolidan dalolat beradi. Zotan, shaxsni ma'naviy takomillashtirish hatto global muammolarning ham yechimidir. Tilshunoslik esa shaxs ma'naviy tarbiyasi amaliyoti uchun asosiy ilmiy bazani shakllantiradi.

Til ta'limi metodikasi — ko'hna va hamisha dolzarb mavzu, har qanday davlatning asosiy muammosi. U, ayniqsa, dunyo bilan shiddatli integratsiyaga kirishayotgan O'zbekistonda yechimlari chuqur va izchil ilmiy yondashuvlarni talab qiladigan soha. O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitishni takomillashtirish alohida yondashuvlarni taqozo etgani kabi, uni xorijiy til sifatida o'rgatishda yangicha — ilg'or xorijiy va milliy texnologiyalarni uyg'un qo'llash zarurati mavjud. O'zbek tilshunoslari va amaliyotchilari xalqaro tillar ta'limidagi eng birinchi bosqich — til leksikasi va grammatikasini o'rganuvchilar saviyasiga muvofiq ravishda darajalash muammosi ustida ishlayotgani muammo yechimining uzoq emasligini ko'rsatadi. Buning uchun yaratilgan baza — O'zbek tilining milliy korpusi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. So'zlarni qo'llanish darajasi bo'yicha statistik o'rganish va natijalarni chiqarish muammo yechimining asosiy yo'li sifatida belgilandi.

O'zbek amaliy tilshunosligining asosiy muammolaridan biri alifbo va imloni takomillashtirishdir. Bunda aniq ilmiy-mantiqiy asoslangan, muammoga atroflicha munosabatda bo'lgan holda chiqarilgan ilmiy xulosalarga tayanish lozimligi qayta-qayta uqtirilmoqda.

Alifbo shunchaki harflar tizimi emas. U millat dunyoqarashi, psixologiyasi, tafakkur tarzi va ijtimoiy madaniyati ramzidir. Uni o'zgartirish uchun berilayotgan har bir taklif o'zbek tili fonetikasi bo'yicha olib boriladigan eng so'nggi kompyuter texnologiyalari va zamonaviy dasturlar asosidagi chuqur ilmiy-amaliy izlanishlarni kun tartibiga qo'yadi. O'zbek tili fonetikasini eksperimental o'rganish o'tgan asrning 50-60-yillaridan keyin to'xtab qolgan. Bugun uni qayta tiklash, jonli o'zbek tili fonetik manzarasining virtual shaklini yaratish ehtiyoji amaliy tilshunoslikdagi yechimini kutayotgan muammolardan, uning tiklanajak "Eksperimental fonetika" yo'nalishi oldidagi istiqbolli vazifadir.

Yangi O'zbekiston istiqbolli til siyosati vazifalari ijrosi uchun keng qamrovli amaliy lingvistik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishi zarur. Zotan, yangi ijodiy muhit va sharoit yangi ilmiy metodologiyaga asoslangan nazariy asoslari mustahkam zamonaviy amaliy lingvistik tadqiqotlarni taqozo etadi.



YANGI O'ZBEKISTON MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI

# MENEJERLIK SERTIFIKATI



## MAKTAB DIREKTORLARIGA NEGA KERAK?

**Muhammad HALIMOV,**
**Xalq ta'limi xodimlarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi direktori vazifasini bajaruvchi**

**Joriy yil 28-avgustda maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi o'rnini ko'paytirish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida maktab ta'limida boshqaruv tizimi ham o'zgartirilishi xususida so'z yuritildi. Xususan, direktorlikka nomzodlar faqat sertifikati bor va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlanishi va muddatli shartnoma asosida ishga olinishi, direktorlar va o'rinbosarlari har besh yilda bir marta sertifikatsiyadan o'tishi kabilar belgilandi.**

Maktab ta'limida boshqaruv tizimi o'zgartirilishi sohadagi qator yangilanishlarga sabab bo'ladi. Zero, maktab direktori boshqaruvga oid zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, jamoada ishlash, ijodiy va pedagogik ta'lim muhitini yaratish, o'qituvchilarni, jamoani birlashtira olish kompetensiyasiga ega bo'lishini davrning o'zi talab etmoqda.

2023-yilgacha maktab direktorlarini lavozimga tayinlash uchun nomzodlar maktabni rivojlantirish bo'yicha 3 yillik dasturini taqdim etishi, bu xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi, ma'qul deb topilgan nomzodga direktorlik vazifasida ishlash bo'yicha tavsiya berish mumkin edi. Bu qator kamchiliklarni yuzaga keltirgan. Jumladan, kengash tarkibidagi aksariyat a'zolar ta'lim tizimi va pedagogik sohadan yiroq kishilar edi. Qolaversa, direktorlikka nomzodlarni tanlashda mahalliy hokimiyat ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ish samaradorligiga xalal bergan.

Tadqiqotlarga ko'ra, 36 foiz pedagog xodim faoliyatini boshqa maktabga ko'chirish istagini bildirgan. Bunga sabab qilib boshqaruv tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmagani va tayinlangan rahbarning lavozimiga noloyiqligi ko'rsatilgan. Maktab direktorlarining kasb standarti joriy qilingan, ammo amaliyotga to'liq tatbiq etilmagan. Bu lavozimga tayinlangan shaxslarda boshqaruv, jamoa bilan ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va huquqiy savodxonlik yetarli darajada bo'lmagani sababli turli ziddiyatlar yuzaga kelib, yuqori tashkilotlarga murojaatlar ko'paymoqda.

Qolaversa, joylarda maktab ta'limidagi holatni va bevosita maktab rahbarlari bilan bog'liq muammolarni o'rganish yuzasidan o'tkazilgan suhbatlarda ayrim direktorlarning jamoa va ota-onalar bilan ishlash, byudjetdan tashqari mablag' topish, moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy savodxonligi, AKT bo'yicha ko'nikmasi yetarli emasligi, maktabni rivojlantirish strategiyasi yo'qligi ma'lum bo'lgan. 2022/2023-o'quv yilining boshiga qadar 10 ming 104 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi mavjud edi. Hozir maktab direktori lavozimiga vakant o'rinlar soni 500 taga yaqin.

Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida 2024-yil 1-yanvardan maktab direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o'qitishni boshlash rejalashtirilmoqda. Institutda kurslar rasman ochilish muddati Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror loyihasi tasdiqlanishiga bog'liq.

Menejerlik kurslari o'quv reja va dasturlarini tuzishda xorij tajribasidan foydalanildi. Ular umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standarti mazmunidan kelib chiqib, 5 modul asosida ishlab chiqilgan. U 8 kompetensiya bo'yicha bo'lg'usi maktab direktorlarining bilim va ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu o'quv reja va dastur Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlyandiya kabi davlatlar tajribasiga asoslangan. BAA poytaxti Abu Dabidagi Amirliklar ilg'or ta'lim kolleji hamkorligida o'quv dasturlari takomillashtirilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, professor-o'qituvchilar almashinuv dasturlari, qo'shma tadqiqot loyihalari va malaka oshirish imkoniyati yuzasidan hamkorlik va o'zaro bilim almashish muhokama qilinmoqda.

Joriy yil 28-avgust kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi yil yakuniga qadar BAA va boshqa davlatlar tajribasi asosida maktab direktorligiga nomzodlarni o'qitish, bilimini baholash hamda ularni sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yishi zarurligi belgilangan.

Shunga asosan, Amirliklar ilg'or ta'lim kolleji bilan hamkorlikda direktorlar tayyorlash va ularning bilimini baholash yuzasidan o'quv dasturlarini o'rganish, tahlil qilish asosida menejerlik o'quv kursining o'quv dasturi ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.



Yakuniy sinovlar esa Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasdiqlagan dasturlar asosida jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruv, moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini aniqlash yuzasidan yetakchi olimlar va malakali mutaxassislar, shuningdek, nodavlat tashkilotlar vakillarini jalb qilgan holda ishlab chiqiladi.

Yakuniy sinov topshiriqlari asosida markaz tomonidan test va keys savollari bazasi shakllantiriladi. Yakuniy sinovlar test, keys hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo'ladi. Test savollarining mazmuni bevosita maktab amaliyotidan kelib chiqib tuziladi. O'rganilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq qilinishiga e'tibor qaratiladi. 70 ball va undan yuqori natija olgan nomzodlar yakuniy sinovni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi va ularga menejerlik sertifikati beriladi. Amaliy topshiriqlarni nomzod ijodiy ish shaklida taqdim etadi va imtihon komissiyasi tomonidan baholanadi.

Belgilangan ballni to'play olmagan nomzodlar bir yil ichida navbatdagi bitta yakuniy sinovda ishtirok etish huquqiga ega. Ikki marta ham yakuniy sinovda belgilangan ballni to'play olmagan nomzodlar menejerlik o'quv kursida qayta o'qiganidan so'ng yana unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu sertifikat Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va maktablar, alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar uchun amal qilmaydi.

Menejerlik sertifikati 5 yil kuchda bo'ladi. Nomzodlar mazkur muddatni uzaytirish uchun menejerlik sertifikatini yangilash bo'yicha yakuniy sinovlarda ishtirok etishi mumkin.

Tajribaga ko'ra, har qanday bilimni amaliyotda yoki hayotda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Demak, menejerlik kursida o'qigan yoki nimanidir o'rgangan nomzod bilimini ertangi faoliyatida qo'llashni, biror muammoga duch kelganda kursda o'rgangan ko'nikmalaridan foydalanib, masalani ijobiy hal etishi maqsadga erishganidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida 2023-yil iyun oyida tashkil etilgan tajriba-sinov kurslariga 50 nafar nomzod hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tavsiyasiga asosan ixtiyoriy qabul qilingan. Navbatdagi kurslar uchun nomzodlar maxsus portal orqali elektron ro'yxatdan o'tadi hamda menejerlik o'quv kursida o'qish uchun ariza topshiradi.

Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin menejerlik kurslariga dars o'tadigan professor-o'qituvchilar Toshkent Xalqaro Vestminster universitetining yetakchi trenerlari tomonidan qisqa muddatli kurslarda o'qitildi. O'quvning 1-2-haftasidagi mashg'ulotlar institutda tashkil etilgan bo'lsa, 3-haftada belgilangan maktab amaliyoti Toshkent shahridagi muayyan tayanch maktablarda o'tkazildi. Yuqori malakali va tajribali maktab direktorlarini jalb qilgan holda ilg'or tajriba o'rgatildi. Har bir mavzu sohaning tajribali mutaxassislari tomonidan o'tilgani, auditoriyada olgan nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'langani, ya'ni bevosita maktablarga borib o'rganish jarayoni, mashg'ulotlar interaktiv va interfaol usullarda olib borilgani nomzodlarda rahbarlik mahoratini o'rganishga qiziqish va intilishning oshishiga xizmat qildi.

Belgilanayotgan tartibga ko'ra, menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan nomzodlarga maktab direktori lavozimi uchun tanlovda ishtirok etish huquqi berish ko'zda tutilgan. Tajriba-sinov kurslarida o'qigan 50 nafar va 2024-yil yanvar oyidan boshlanadigan kurslarni muvaffaqiyatli tugatgan nomzodlar direktor lavozimi vakant maktablar uchun e'lon qilingan tanlovda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodga kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va menejerlik sertifikati, ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lish, xorijiy tillardan birini boshlang'ich darajada va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni hamda davlat tilini bilish (rus, ingliz va boshqa chet tillarni bilish ustunlik beradi) talablari qo'yilgan.

Bugun maktab direktorligiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish natijasida maktab boshqaruv tizimi tubdan o'zgaradi, sog'lom muhit hamda raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan jamoa shakllanadi. O'z navbatida, bu ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

BOQIY MEROS





**Davlatimiz rahbarining “Baxshichilik va dostonchilik milliy g‘ururimiz. Uning zamiridagi eng ezgu qadriyatlarimizni xalqimizga yetkazish lozim. Baxshichilik xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalarini asrashga, uni rivojlantirishga, baxshilarning obro‘sini ko‘tarishga xizmat qilishi kerak”, degan gaplari milliy san’atimizni yanada rivojlantirishga rag‘bat va undov bo‘ldi. Zero, so‘nggi yillarda milliylikni teran anglash va yoshlarda o‘ziga xos an’analarimiz bilan faxrlanish tuyg‘ularini mustahkamlashga alohida hurmat bilan qaralyapti. Vatanimiz hududi insoniyat madaniyatining ilk beshiklaridan bo‘lgani dalillarini jahon hamjamiyatiga yetkazish g‘oyasi bevosita Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgani quvonarli.**

Davlat tadbirlarida baxshilar, folklor-etnografik guruhlar chiqishlari kengayib, baxshichilik san’ati bo‘yicha xalqaro festival va tadbirlarning tashkil etilayotgani shu merosni boyitishga hissa qo‘shayotgan barcha-barchani birdek baxtiyor etayotgani haqiqat.

Yaqinda Shahrisabz shahrida Madaniyat vazirligi, Respublika baxshichilik san’ati markazi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etilgan Baxshichilik san’ati yo‘nalishida yosh baxshilar, oqinlar va jirov ijrochilarining respublika ko‘rik-tanlovi ham baxshichilik san’atini rivojlantirish borasidagi ezgu ishlarning amaldagi ifodasi bo‘ldi.

Tanlovda mazkur san’at yo‘lini tutgan 17 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan baxshilar, oqinlar, jirov ijrochilari qatnashdi. Ular o‘z chiqishlarida milliy an’analarimizni namoyish etgan holda, doston va termalarni mahorat bilan ijro etdi.

Tanlov g‘oliblarini aniqlash, kuchlilarni saralash mas’ullar uchun oson kechmadi, albatta. “Eng yosh baxshi” — Jamshid Shoqulov, “Muxlislar e’tirofiga sazovor bo‘lgan eng yaxshi ishtirokchi” — Og‘abek Ulashov, “Eng yaxshi jirov ijrochisi” — Tolibay Berdimurotov, “Eng yaxshi badihago‘y” — Sherali Egamberdiyev, “Eng yaxshi doston ijrochisi” — Usmonjon Abdullayev, “Eng bilimli baxshi” — Temurbek Yusupov, “Sulolaning eng yosh davomchisi” — Bekjon Rahimov, “Eng yaxshi oqin” — Suhrob Qodirovga berilgan nominatsiyalar tom ma’noda munosib egalarini topdi deyish mumkin.

Ko‘rik-tanlov g‘oliblari va tashkilotchilar bilan tadbir taassurotlari haqida suhbatlashganimizda, bunga yana bir karra amin bo‘ldik.

# KO‘HNA KESHDAN BOSHLANGAN sohir sozlar sadosi

## Alladan ham ko‘proq doston eshitganman

**Sherali EGAMBERDIYEV,**
**“Eng yaxshi badihago‘y” nominatsiyasi g‘olibi:**

**— Prezidentimizning baxshichilik san’atiga qiziqishi kuchli ekanidan biz, baxshilar juda xursandmiz. Ayniqsa, yosh baxshilar uchun baxshichilik maktablari, respublikada yagona bo‘lgan alohida maktab-internati ochib bergani tahsinga loyiq. Baxshilar ham oliy ma’lumot olishi uchun Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san’ati institutida Baxshichilik kafedrasi tashkil etilgani nihoyatda ezgu ish bo‘ldi.**

2019-yil Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan I xalqaro baxshichilik san’ati festivalida qatnashgan bo‘lsam, yildan-yilga bu festivalning ko‘tarinkilik kasb etayotganini sezyapman. Xususan, joriy yil Sirdaryoda bo‘lib o‘tgan festivalda yoshlar safi yanada kengaygani, ko‘plar qatori meni ham quvontirdi. Baxshilar tili bilan aytganda, belini mahkam bog‘lagan, o‘zini sherdek shaylagan, baxshichilik san’atini puxta o‘rganay, deb ertasini o‘ylagan 30 dan ziyod yosh baxshi Gulistonda jam bo‘ldi.



Odatda baxshichilikka, asosan, vohada, qishloqlarda qiziqish bo‘lardi. Hozirgi kunda esa shaharlarda ham yoshlarning bu san’atga qiziqa boshlagani quvonarli hol. 2018-yildan buyon baxshichilik maktablarida o‘qituvchi bo‘lib ishlayotgan bo‘lsam, keyingi paytda nafaqat Termiz shahridan, balki Buxoro, Namangan, Qo‘qon, Andijon viloyatlaridan kelib o‘qiyotgan yoshlarni bilaman. Toshkent shahridan ham 3 nafar bola tahsil olyapti.

Shu o‘rinda aytish kerakki, 2022-2023-yillar davomida baxshichilikka qiziqish bildirganlar soni sezilarli darajada oshdi. Bolalarimizning o‘zlari bu san’atni o‘rganish istagida, ota-onasi majbur qilayotgani yo‘q. Qoraqalpog‘istonda 6 yoshli bola bemalol “Elege” dostonini kuylab beryapti. Shunday ekan, uning “Eng yosh baxshi” nominatsiyasini olishiga kim e’tiroz bildiradi?

O‘zim ham Qashqadaryo elida o‘tgan 17 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan baxshi, oqin va jirovlar o‘rtasidagi festivalda hakamlar nazariga tushganimdan xursandman. Tanlov haqiqatan shaffof o‘tdi. Olimlarimiz, ustozlarimiz biz, yoshlarning baxshichilik san’atini puxta o‘rganib, sir-sinoatini chuqur anglasin, degan maqsadda bilet tortib, javob berish usulini qo‘lladi. Savollar, yondashuvlar yuzaki emas. Yosh baxshilardan kutilmaganda improvizatsiya qilib berish ham so‘raldiki, bu kuchlilarni saralashning eng to‘g‘ri yo‘li, deb o‘ylayman. Xalq baxshilarining hayoti va ijodi bo‘yicha savollar berilgani ham ayni muddao.

Alla eshitgan bola boshqacha bo‘ladi, deyishadi. Men alladan ham ko‘proq doston eshitganman. Ham otam, ham ustozim Shodmon baxshi Xo‘jamberdiyev turli dostonlarni aytib berardi. Bolaligimdan “Alpomish”, “Xondali”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini eshitib katta bo‘lganman. Abdunazar baxshi qo‘lida ham ta’lim oldim. Ustozim menga do‘mbiraning sir-asrorlarini o‘rgatgan. Ustozlarimiz “Biz ustoz bilan 70-80 chaqirim yayov yurib, baxshichilik ilmini o‘rganganmiz. Ular bizga barmoq mashqlarini, mimikalarini, sahnada qanday turib aytish kerakligini o‘rgatmagan, to‘ylarda eng orqada o‘tirib, dostonlarini eshitib, o‘zimiz o‘rganganmiz”, deyishadi.

Bugungi yoshlarga esa maxsus maktab, alohida darsliklar muhayyo. Ustozlarning o‘zlari kelib, saboq beryapti. Xususan, men ishlayotgan Respublika baxshichilik maktab-internatida otam Shodmon baxshi hamda Baxshiqul Tog‘ayev dars o‘tadi. Ustoz baxshi Zulxumor Shernazarova esa qizlarimizga dostonchilik, terma sirlarini o‘rgatib kelmoqda. Qiz baxshilarimizning sekin-asta ichki ovozga o‘tib borayotgani quvonarli. Zero, Qashqadaryo, Samarqand dostonchilik maktablari qatorida Surxondaryoda ham ichki ovozda, yakkaxon, do‘mbira jo‘rligida aytgan ustozlarimiz. Men ham shu ustozlar darajasiga yetib, bo‘lg‘usi baxshilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, ularni munosib tarbiyalashni niyat qilganman. Ikki yil avval termalar to‘plamim kitob shaklida chop etildi. Bu kitobdan tengdoshlarimiz o‘zlari uchun kerakli jihatlarni olsa, ko‘nglim tog‘dek yuksaladi.



## Baxshichilik san’atini dunyoga tanitamiz

**Og‘abek ULASHOV,**
**“Muxlislar e’tirofiga sazovor bo‘lgan eng yaxshi ishtirokchi” nominatsiyasi g‘olibi:**

**— Bolalikdan baxshichilikka qiziqib, ustozlarim Aliyor baxshi Normatov, Mahmadmurod baxshi Rajabovdan tahsil olganman. Ko‘plab ko‘rik-tanlovlarda, qator tadbirlarda qatnashib, bu san’atning sir-asrorini tobora chuqurroq bilib boryapman. Negaki, bunday tadbirlar barcha katta-kichik baxshilarni bir yerda jamlab, tajriba o‘rganish, fikr almashishga imkon yaratadi.**



Qashqadaryoda birinchi bor bo‘lib o‘tgan festival esa ishtirokchilarning yoshi chegaralangani bilan boshqalaridan farq qildi. Yaxshi tomoni — yosh baxshilar uchun katta tajriba maktabi vazifasini ham o‘tadi. Ijodimizni, ustozlarimizdan o‘rgangan dostonlarimizni, bilim va ko‘nikmalarimizni emin-erkin namoyish qildik. Ustozlarimiz ham bizni qo‘llab-quvvatlab turganidan ma’naviy kuch oldik.

Festival doirasida tashkil etilgan seminarda xalq baxshilari, tajribali ustozlarimiz bergan ma’lumotlar bizga ko‘tarinki ruh bag‘ishladi. Tadbir so‘ngida tashkil etilgan gala konsert yuragida o‘ti bor baxshiyu oqin, jirovlarni jo‘shtirib yubordi. Bunday festivallar yanada ko‘payaversin, biz, yosh baxshilar ijoddan to‘xtamaylik, festivaldan festivalga o‘sib boraveraylik, deyman. Shu kungacha ham Prezidentimizning tashabbusi, alohida topshiriqlari bilan bo‘layotgan bunday tadbirlar uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildiraman.

Hozirgi kunda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida baxshichilik va doston ijrochiligi ta’lim yo‘nalishida ustozim Zafar baxshi Hayitovdan tahsil olyapman. Bunday imkoniyat ham hech qaysi davrda bo‘lmagani, yangi O‘zbekistonda bizdek baxtli yigit-qizlarga nasib etganidan quvonib ketaman. Chunki bu kunlarni orzu qilgan, baxshichilik maktabida o‘qimagan bo‘lsa-da, o‘ziga xos obro‘ga ega ustozlarimiz bugun bizga havas qiladi. Bunga javoban aytamanki, nasib qilsa, biz, yoshlar o‘zbek xalqining baxshichilikdek betakror san’atini butun dunyoga tanitishga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

## Tanlov kutganimizdan-da a’lo o‘tdi

**Umid NORBOYEV,**
**Respublika baxshichilik san’ati markazi rahbari:**

— 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida yosh baxshilarni, aynan 17 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan baxshilarimizni saralash, ularni rag‘batlantirish maqsadida ko‘rik-tanlov tashkil etish vazifasi belgilangan. Bu bo‘yicha madaniyat vazirining buyrug‘i ham chiqqan. Shular asosida ko‘rik-tanlovga baxshilarni jalb etish maqsadida OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarga e’lon berdik.



50 dan ziyod baxshilarimiz ko‘rik-tanlovda ishtirok etish istagini bildirdi. Talabgorlar Shahrisabz shahridagi madaniyat saroyida 1-bosqich saralash turida malakali hakamlar tomonidan ijrosi, sahna madaniyati, nag‘malarni bilishi, ustozlarga ta’rif berishi kabi shartlari bo‘yicha bellashdi. 9 nafar baxshilarimiz turli nominatsiyalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Ko‘rik-tanlov ilk bor tashkil etilgan bo‘lsa-da, biz kutgandan ham a’lo o‘tdi. Zero, ishtirokchilar, hakamlar ham tadbir boshqacha taassurot qoldirganini e’tirof etdi. Quvonganimizdan rejada bo‘lmasa-da, gala konsert ham uyushtirib yubordik. Ko‘rik-tanlov doirasida “Baxshichilik san’atida an’anaviylik va zamonaviylik tamoyillari” mavzusida ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi. Unda O‘zbekiston xalq baxshilari Mahmadmurod Rajabov, Ochil Chorshanbiyev hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirok etdi. Yosh baxshilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga tajribali ustozlardan kerakli ma’lumotlarni oldi. Buni respublikamiz bo‘ylab yosh baxshilarga yetkazish maqsadida seminar ijtimoiy tarmoqlarda, telekanallarda ham namoyish etildi.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan bunday tadbirlar, albatta, shunchaki o‘tkazilmaydi, ular bardavom bo‘ladi.

* * *

Ko‘rik-tanlov ishtirokchilarining qaysi biri bilan gaplashmang, yuqoridagi kabi fikrlarni bildirib, bunday shaffof tanlovlarni an’anaviy yo‘lga qo‘yish kerakligini ta’kidladi. O‘ylaymizki, mutasaddilar bu borada allaqachon o‘z fikrlari, istiqbolli rejalari bilan o‘rtoqlashib bo‘lgan. Shubhasiz, ularning qalblarini qadim Shahrisabzda jaranglagan sohir sozlar sadosi, festival shukuhi hamon tark etgani yo‘q.

**Sayyora XURSANDOVA,**
**Respublika baxshichilik san’ati markazi kichik ilmiy xodimi,**
**Munojat MO‘MINOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-1146.
43313 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05